

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**HOZIRGI ADABIY JARAYON**

**FANIDAN**

**MA'RUZA MATNI**

**Jizzax -2009**

Mazkur ma'ruza matni 5141100- O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat yo'nalishi ishchi o'quv rejasidan olingan. "Hozirgi adabiy jaraayon"ning (DTS,2009) namunaviy fan dasturi (№ BD 5141100-3.23-13 avgust 2006 yil) asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:	Filologiya fanlari nomzodi, dotsent I.Ikromov, dotsent N.Soatova
Taqrizchilar:	Filologiya fanlari nomzodi, dotsent D.Akbarova Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Yu.Karimova

## **1-MAVZU: BUGUNGI KUN SHE'RIYATINING TAMOYILLARI**

### **REJA:**

1. Bugungi kun she'riyatining o'ziga xos xususiyati.
2. Islom asotirlari va g'oyalari bilan sug'orilgan she'riyat.
3. She'riyatda millim g'oya va milliy mafkuraning ifodasi.
4. Bugungi kun she'riyatida poetik obraz va motiv.

### **ADABIYOTLAR:**

1. N.Afoqyeva. She'r, hikmat. T., 1994
2. J.Kamol. Lirik she'riyat. T., 1980
3. H.Karomatov. Qur'on va uzbek adabiyoti. T., 1993
4. B.Norboyev. Istiqlol va iste'dod. T., 1996
5. Ya.Qosimov. Uyg'onish sadolari. T., 1991
6. I.G'afurov. Lirikaning yuragi. 1982

Istiqlol tufayli ma'naviy qadriyatlarga, madaniyatga, jumladan, so'z san'atiga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi. Yangi davr nafaqat adabiyotimiz tarixiga, balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g'oyaviy - estetik mezon bilan yondoshishni taqozo qiladi.

XX asr o'zbek she'riyatipiig erk uchun olib borgan kurashi e'tiborga loyiqdir. U ikki bosqichga egadir: biriichisi, asrimizning ilk bosqichiga, ikkiichisi esa, oltmishinchi yillarga tug'ri keladi.

Hozirgi o'zbek she'riyatiping ma'naviy miqyosi, badiiy, salohiyati kundan-kunga o'sib boryapti. Shu ma'noda hozirgi o'zbek adabiyotida lirika alohida o'ringa ega. Unda zamondoshimiz qalbida kechayotgan his- tuygularni aks ettirish barobarida, jamiyatimizning har bir a'zosida mustaqillikka shukronalik, porloq kelajakka bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat etmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimovning «Odamlarda o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, o'tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni o'z qo'limizga olganimizdan g'ururlanish kabi tuyg'ular kamol tonyapti, ularning bugungi va ertangi ishonchi ortib borayapti», - degan fikr bugungi she'riyatga ham tegishlidir.

Bu kun she'riyatining tabiati va uning zamiridagi falsafiy g'oyani ochib berish, uning yetakchi g'oyaviy-badiiy tamoyillarini aiiqlash, o'zbek she'riyatining istiqboldagi taraqqiyotini ham oldindan belgilashga imkon beradi.

Ma'lumkn, ijtimoiy hayotda kechayotgan evrilishlar birinchi navbatda lirikada aks-sado beradi. Bu narsa uning tamoyillarini ham belgilaydi. Bugungi adabiy jarayonda to'rt tamoyil yetakchilik qiladi. Birinchi navbatda, O'zbekistonning mustaqil davlat maqomiga ega bo'lishi bilan milliy uyg'onish g'oyalari balqib turgan she'rlarga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Biz Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Oydin Hojiyeva, Halima Xudoyberdiyeva, Jamol Kamol, Gulchehra Nurullayeva, Muhammad Yusuf, Xurshid Davron, Azim Suyun, Yusuf

Jumayev kabi shoirlarning yangi she'rlarida kitobxonni yangi tarixiy voqelikni his qilishga; yangilanish va poklanishga chorlovchi g'oyalarni ko'ramiz. Bu g'oyalar avvalgidek hayqirishlar tarzida baland pardalarda aytilgan, ammo yurakka yetib bormaydigan so'zlar bilan tarannum etilgan emas. Aksincha, yurak qa'ridan, yurak qonlariga qo'shilib chiqqan, shuning uchun ular boshqa yuraklarga ham yetib bordi va bormoqda. Shu tarzda xalqni - mustaqillik yo'liga chiqib olgan xalqni uyg'otuvchi, unda milliy g'urur va e'tiqod, istiqbol va istiqbolga ishonch tuyg'ularining ardoqlovchi she'rlar bugungi adabiy jarayondagi birinchi va yetakchi tamoyil hisoblanadi.

Totalitar tuzum va uning mafkurasi milliy respublikalar xalqlarining tarixidan, madaniyati ildizlaridan mahrum etibgina qolmay, diniy an'analari va urf-odatlarini ham payhon qilib tashladi. Diniy madaniyat o'rniga bu xalqlarga berilgan markscha-lenincha ta'limot esa ular imkonini salomat olib qololmadi. So'nggi yillarda dinga erkinlik berilishi, islom ta'limotiga oid ilmiy ommabop asarlarning naydo bo'lishi va boshqa tadbirlar natijasida o'zbek she'riyatida islom asotirlari va g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlar paydo bo'ldi.

Abdulla Oripov «Haj daftari» va «Hikmat sadolari» turkumi bilan XX asr o'zbek she'riyatiga diniy-ma'rifiy g'oyalarni birinchi bo'lib olib kirdi. U Rabg'uziyniig «Qissai Rabg'uziy» asari na Ismoil Buxoriyning «Hadis»larini o'rganish, «Qur'oni karim»ni o'qish asosida ularda bayon qilingan diniy-ma'rifiy g'oyalar bugungi yosh avlodni yuksak insoniy madaniyat, imon va e'tiqod ruhida tarbiyalash mumkinligini zukkolik bilan sezdi.

Shoir ellik she'riy hadisni o'z ichiga olgan «Hikmat sadolari» turkumida diniy manbalardan o'rin olgan syujetlar, hikmatlar va orzulardan samarali istifoda qilgan holda kishilarni poklikka da'vat etuvchi, ular qalbiga ezgulik urug'larini sepuvchi va hidoyat yo'liga yetaklovchi lirik qahramon, XX asr o'zbek she'riyatining yetakchi qahramonidan shu bilan farqlanadiki, u avvalo Tangri-taoloning mavjudligiga ishonadi, ishonibgina qolmay, bu dunyodagi barcha voqeyalar uning amri bilan yuz berayotganiga qanoat qiladi va har bir odam orttirgan gunohlari, sodir etgan jinoyatlari uchun oxiratda jazolanishiga shubha qilmaydi. U o'zidagi ana shu ishonchni boshqalar qalbiga ham singdirishni o'zining murod-maqsadi deb biladi:

U senga ko'rsatdi hidoyat yo'lin,  
Yurgil yo yurmassan, o'zing bil, insoi.  
Balki sen tutgaysan Iblisning qo'lin Yaratgai  
Xoliqqa barchasi ayon.  
Pishqirgan daryoning sohilida rap,  
Tashnayu zor qilsang, aybdor o'zing.  
Boshingga nogohon balolar yog'ar,  
Labingdan uchgai chog jaholat so'zing.

Bu borada Abduvali Qutbiddin ham samarali ijod qilayapti. U o'z g'oyasini g'ayri-tabiiy g'aroyib manzaralar, tasvirlar zamiriga singdiradi. Sirdan qaraganda uning tashbehlariga yuklangan fikr, tuyg'ular ko'ngil ko'zida aks etgan mutlaqo noreal, tushdagi kabi tartibsizlikday ko'rinadi. Lekin chuqurroq mushohada qilinsa,

uning mohiyati anglashiladi. Chunki diniy qarash falsafa obyekta real hayot emas, inson ruhiyati, ruhiy hayot, boqiy dunyodir. Zeroki shunday ekan, tasvirning gayritabiiy bo'lishi hayron qolarli hol emas. Biroq rang tasvir va tashbehlarining realligida emas, uning zamirida yotgai fikr hamda uniig mohiyati muhimdir. Bu holni A.Qutbiddinning «Imon» degai she'rida kuzatish mumkin:

Tysh ko'rdim, zulmat o'rmonni qahri.  
Boyo'g'li qizlari terurlar chanoq.  
Yo'lbarsday sochadi teqraga qahrin,  
Umr manzil ko'rib bebosh, beadoq.  
Tush ko'rdim, ufqning ayollari o'ynar,  
Shamol siynasida entikar xayol.  
Yalpiz beshiklarida tongmi tebratar,  
Bo'yrada yaliizlar undirgai ayol,,,

«Imon» so'zi, tushunchasi, obrazi kabi mumtoz she'riyatimizning boy merosiga Abduvalida havas kuchli. Buiiig quvontiradigan bir jihati ulkan va ulug merosga shoirning munosib vorislikka intilishida, borliqni anglash va talqin qilishda tasodif bilan doimiylikii farqlab ish ko'rishidadir.

Bugungi o'zbek she'riyatida ko'zga tashlangan uchinchn tamoyil adabiyotning so'z san'atligi, uniig o'ziga xos xususiyatlari bilan bogliq.

Oybek yosh kitobxonlarga murojat etib, ularga she'riyatni sevish, undan bahramand bo'lish lozimligini ta'kidlar ekan, bunday yozgan edi; «She'riyat dunyosi, muzikasining sehrli kuylari, bahor shabadasi kabi, sizning qalbingizga eng go'zal inson husnini beradi, nafis zavq bagishlaydi. She'riy va muzika dunyosida xulqingiz nozik go'zallik, chuqur hissiyot kashf etadi. Taassuflar bo'lsinki, sovet davrida she'riyatniig ana shu, bahor shabadasi kabi, inson qalbiga eng go'zal insoi husnini vazifasini ado etishga yaramadi. U grajdanlik g'oyalari deb atalgan zolvorli yukni ko'tarishdan nariga o'tmadi. She'riyat bunday og'ir yuklardan bir qadar ozod bo'lgan hozirgi davrda endi o'zining birlamchi bajarish kishilar qalbiga nazokat va nafosat gullarinn sochishi tuyg'ularini tarbiyalashi, zavq-shavq bag'ishlashi lozim. By borada M. Yusufning «Ishq kemasi», E. Shukurovning «Sochlari sumbula sumbul» H Ahmedovning «Tungi marvarid gullar», H. Asqarniig «Tongning bedor ko'zlari» to'plami va yoshlarning qator she'rlari misol bula oladi.

Turtipchi tamoyil sof milliy xususiyatga, ya'ni millat ruhiyatiping bor ko'rinishi, o'z ifodasini topgan she'riyatning yuzaga kelishi.

Milliy mustaqillikning ijtimoiy-siyosiy ko'rinishi bu milliy mafkura bilan xarakterlanadi. Milliy istiqloqloning asosiy shartlaridan biri mafkuraviy mustaqillikdir. U o'zida millat taraqqiyotiping g'oyaviy yo'nalishini aks ettiradi, Mafkura o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra ham yangilayotgan jamiyatning yo'nalishini, uning qiyofasini belgilab beradi. Milliy mafkura taraqqiyotida milliy an'analarga, qadriyatlar, madaniy merosning ahamiyati katta. Chunki mafkuraning milliylik xususiyatlari xalqning an'analari va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Mafkura konsepsiyasi esa xalqning tarixiy rivojlanishidagi tajribalarini asos

sifatida qabul qiladi. Bu o'rinda esa milliy an'analar va qadriyatlar millat mafkurasiga ham mohiyat, yunalish, mazmun va shakl beradi. Shu boisdan ham milliy mafkura taraqqiyotipi milliy an'analarsiz tasavvur qilib bulmaydi. Bu borada lirika katta rol uynaydi va o'ynayapti. Bunga Shavkat Rahmonning she'riyati yaqqol misol bo'ladi. Uning «Bo'sag'a» sherida quyidagi satrlarni o'qish mumkin:

...Panoh so'radimmi borimni yechib,  
o'zni urdimi yo biron eshikka?  
Qaltis lahzalarda orimdan kechib,  
Kirdimmi sichqonlar kirgan teshikka?!  
Qaltis lahzalarda sinalar paytim  
dunyoning ko'ziga qaradim qattiq...

Bu o'rinda ajdodlarimizga xos bo'lgan insoiiy g'ypyr jo'mardlikni anglab olish qiyin emas, ya'ni katta insoniy qadriyatni. Uning «Eski she'r», «Turkiylar», «Sharhi hol», «Tariqat» kabi she'rlari ilgari surilgan fikrlar milliy g'oya va milliy mafkuraning shakllanishiga xizmat qilishi shubhasizdir.

#### **Tekshirish savollari:**

1. Bugungi kun talabi adabiyotda yondoshishni taqozo qiladi?
2. Bugungi kun she'riyatiping tabiati qanday?
3. Ijtimoiy hayotdagi evrilishlar birinchi navbatda nimada (qaysi janrda) aks-sado beradi?
4. Totalitar tuzim mafkurasining salbiy ta'siri nimalarda ko'rinadi?
5. Bugungi she'riyatda nechta tamoyil yetakchilik qiladi?
6. Milliy g'oya va milliy mafkura nima? Uning shakllanishida she'riyat qanday rol o'ynaydi?

#### **Tayanch tushunchalar:**

1. Tamoyil-mayl, moyillik; tendensiya
2. Milliy g'oya millat tafakkurining mahsuli; inson va jamiyat hayotiga ma'no- mazmun baxsh etadigan, uning ezgu maqsadga yetaklaydigan fikrlar majmui.

## **2-MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK POEMACHILIGI (DOSTONCHILIGI)DA JANR VA SHAKL IZLANISHLARI HAMDA MUAMMOLAR TALQINI**

### **REJA:**

1. Bugungi poemachiligida izlanish, yasharish, yangilanish jarayoni.
2. Monolog tipidagi sof lirik poemalar.
3. Epik elementlar aralashgan poema-dostonlar.
4. Liro-epik va dramatik turdagi poema-dostonlar.
5. Bugungi poemachiligida ijtimoiy qadriyatlarga va ma'naviy-axloqiy masalalarga, muhabbat mavzusiga yangicha munosabat.
6. Bugungi o'zbek poemachiligi (dostonchiligi)dagi kamchiliklar.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Adabiy turlar va janrlar. 1-jild, T., "Fan", 1991
2. B.Norboyev. Istiqbol va iste'dod tarbiyasi. T., 1996
3. Ergash Ochilov. Muborak sarchashmalari. T., 1997
4. N.Rahimjonov. O'zbek sovet adabiyotida poema. T. 1986
5. N.Rahimjonov Ilmiy tafakkur jilolari. T., 1991 y.
6. O'zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi. T., 1998.

Bugungi poemachilikda izlanish, yasharish, yangilanish jarayoni kechmokda. Voqyelik va insoi tabiatiping tipmay o'zgarib turishi, yangi yangi g'oyalarniig tug'ilishi, makon va zamon xossalarini yangicha idrok etish - bularning barchasi hayot qatlamlarini tadqiq, qilishni teranlashtirish bilan barobar yangi shakllarni ham yuzaga chiqarmoqda; adabiyotimizda voqyea bulgan har bir asar esa janr qirralarini boyitmoqda. Ya'ni, xalq hayotiping hozirgi tarixiy taraqqiyot bosqichidagi muhim ijtimoiy-siyosii masalalarni zamondoshlarimiz ruhiyati bilan, ko'ngilda tugilib qolgan gaplar bilan omuxtalikda chuqur tahlil qilish kuchaydi; inson nima uchun dunyoga keladi, u qanday yashashi lozim kabi savollar hozirgi poemachiligimizning diqqat markazida turadi.

Hozirgi lirik poemalarimiz obyektiv kurinishi jihatidan ikkiga bulinadi. Birinchisi, monolog tipidagi sof lirik poemalar bo'lsa, ikkinchisi, epik elementlar aralashgan lirik poemalardir. Bu har ikki tur bugungi kun poemachiligimiz taraqqiyotida yetakchi o'rinni egallab borayotir.

Monolog tipidagi sof lirik poemalarda lirik qahramon qalbi hamda undagi tug'yonli hissiyotlar, kechinmali o'ylar orqali obyektiv voqyelik xossalarini ko'ramiz va his qilamiz. Umuman, hayot materialining xarakteri tasvir yo'nalishini taqozo qiladi.

So'nggi yillarda lirik poemalarga epik elementlarning kirib kelishini

hayot materialining o'zi talab qildi. Shunday hayot materiallari ham bo'ladiki, ular mohiyatini monologda, lirik planda ochish qiyin. Shu boisdan uning xarakteri epik elementlarni taqozo qiladi. Hayot materiali o'zini (o'rni kelganda) obyektiv tarzda tasvirlash uchun shoirni "majbur qiladi". Narsa va voqyea-hodisalar qarshisida turgan lirik qahramonning qalb nidolarini ifodalash bevosita, obyektiv borliqdagi voqyea-hodisa va narsalarning o'z obrazlarini yaratish bilan bir qatorda, ular qarshisida turgan qalb sadolarini, ham borish, ham bevosita, ham bavoosita tasvir usulidir. So'nggi yillarda bu har ikki tipdagi poemalarda ham lirik qahramon xarakterini yaratishda tasvirda ruhiyat bosh omilga aylandi. Ya'ni, lirik qahramon ruhiyatini ijtimoiy muhit, voqyelik (masalalari bilan uyg'un holda tadqiq etish mayli kuchaydi. Buni quyidagi obyektiv va subyektiv omillar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, so'nggi yillarda inson shaxsiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi insonning ruhiy iqlimlarini qalbining to'rt faslini tadqiq etish bevosita, uning ongi, saviyasi, fantaziyasini ham keng qamrab olishni taqozo etdi. Keyingi paytda hayotimizdagi ulkan o'zgarishlar, mustaqillikka erishish uning sharofati bilan keng dunyoga chiqish, inson ma'naviy dunyosini ham ongini ham, fikrlashini ham, tubdan o'zgartirib yubordi. Bu mushohadakorlik teran fikrlash jarayoni faqat ayrim odamlar shaxsidagina ro'y berib qolmay, butun xalq uchun xarakterilidir.

Ikkinchidan, bugungi inson qalbini jamiyat qalbi bilan omuxta tadqiq etish, ijodkoridan unga chuqur mushohadalik bilan yondashishni talab etadi.. Natijada, falsafiy o'ylar bilan yo'g'rilgan poemalar yuzaga kelmokda. Demak, janr tabiatida (lirik qahramon ruhiyatini namoyon qilishda) intilektuallik, falsafiylik, fikriy teranlik singari belgilar chuqur ildiz otyapdi.

Keyingi davrda bir qator dostonlar yaratildi. Bular Faxryorning "Yoziq" (1998 y.) , Nabi Jalolidning "Chintasiz odamlar" (Bulgakov va Cho'lponga bagishlangan) , Ikrom Otamurodning "Ichkari. . . tashqari" (1997 y.), Cho'lpon Ergashning "Ra'noning savdosi" (1997 y.), To'lan Nizomning "Cho'lnon"i dostonidir.

Tulan Nizomning "Cho'lnon" dostoni (1992) xazin ruh, mungli nidolar zaminiga qurilgan. Doston o'zbek she'riyatida o'ziga xos voqyea hisoblangan asar, chunki unda buyuk shoirimizning achchiq qismati, nozik shoirona qalbi, ma'naviy olami teran tahlil etilgan. Unda shunday misralarni o'qish mumkin:

Pok iymonga o'q. otildi, bir musulmon uygonmadi,  
Tugilgan yurt, yo Fargona, yo Andijon uygonmadi.  
Har satridan mehri tomgan bu Turkiston uygonmadi.  
Onam deya zardob yutgan O'zbekiston o'yg'onmadi.  
O'zbekiston, shoir o'g'ling!' - Cho'lnoningga kim o'q uzdi,  
O'q ovozi yarim kecha uxlayotgan ko'kni buzdi.

Qotil o'qidan begunoh o'layotgan shoir ohidan ko'k o'yg'onadi, ammo bir musulmon, bir vijdonli inson uyg'onmadi, ya'ni ko'ksini qalqon qilib



tengsiz san'atkor o'g'lini himoya qila olmadi. Sababi ular erksiz qullar, mute odamlar edi. To'lan Nizom ana shu fojia idizini hislar, tuyg'lar, iztiroblar silsilasida teran va ta'siri ikishof qiladi.

### **Tekshirish savollari:**

1. Bugungi poemachilikda qanday izlanish va yangilanish jarayoni kechmoqda?
2. Lirik poema obyektiv ko'rinish jihatidan nechiga bo'linadi?
3. Lirik qahramon xarakterini yaratishda nima bosh omilga aylangan?
4. So'nggi yillarda poemachilikda nimaga e'tibor kuchaydi?
5. Dramatik poema qanday xususiyatga ega?

### **Tanyach tushunchalar:**

1. Doston – 1).Xiyla, makr, firib, nayrang. 2).Nag'ma, nazo, maqom. 3).Afsona, qissa. 4).Rustamning otasi, Zolning laqabi. 5).Qaxramonlarning sarguzashtlari, o'zaro munosabatlari va kechinmalarini keng ko'lamda tasvirlovchi yirik hajmdagi she'riy asar.

2. Poema - hayyotiy voqyea-hodisalarni, shoirning va qaxramonlarning kechinmalarini qorishiq holda tasvirlovchi, dostondan kichikroq, xajmdagi she'riy asar.

## **4-MAVZU: BUGUNGI HIKOYALARNING O'ZIGA XOSLIGI VA TARAQQIYOT XUSUSIYATLARI**

### **REJA**

1. Hayotning mohiyatini, insonning hayotidagi o'rnini, yashashdan maqsadi kabi masalalar mohiyatini ochib beruvchi hikoyalar.
2. Ma'naviy-axloqiy masalalar insonning ruxiy dunyosi orqali ochib berilgan hikoyalar.
3. Inson qadr-qimmatini yaratilgan, totalitar jamiyat illatlari fosh qilingan, mutelik psixologiyasining tub mohiyati inkishof qilingan psixologik hikoyalar.
4. Tarixiy voqeyelik to'g'ri yoritilgan, tarixiy shaxslar faoliyatiga to'g'ri pozitsiyada bo'lgan tarixiy mavzudagi hikoyalar.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Adabiy turlar va janrlar. 1-jild. T-1991 y.
2. T.Jo'rayev. Ong oqimi va tasviriylik. T. "Fan", 1994 y.
3. H.Karimov. Janrmi yoki uslub. T. «Fan», 1991 y
4. H.Karimov. Davr va inson. T. «Fan», 1992 y
5. X-Karimov. Milliy-ozodlik kurashchilari va adabiyot. T. 1997 y
6. H.Karimov. Shukur Xolmirzayev. T. 1999 y
7. I.Mirzayev. Adabiyot va davr dardi. T. 1990 y
8. I.Mirzayev. Nasrimiz badiiy olami. T. 1991 y
9. M.Qarshiboyev. Taloto'ndan uyg'unlik sari. T. 1998 y

Keyingi yillarda o'zbek hikoyachiligida o'ziga xos uyg'unlash, yangilanish jarayoni kechmoqda. Ma'lumki, badiiy ijodda muayyan yo'nalishning vujudga kelishi tasodifan ro'y bermaydi, balki har qanday tamoyilning vujudga kelish tarixi, qo'lami, miqyosi va istiqboli bo'ladi. Badiiy adabiyotdagi tamoyillarining vujudga kelishi badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar jarayonidan boshlanadi. Shunday o'zgarishni istiqbol berdi. Albatta yangicha tafakkurning samarasi yangicha qarashdagi ijoddir. Shunday ijodning biri Asqad Muxtorning «Fano va baqo» hikoyasidir.

Hikoya 1992 yilda totalitar jamiyat mafkurasidan holi mustaqillik tug'dirgan imkoniyat tufayli sharq falsafasi tamoyilida yozilgan. Unda insonning ikki dunyosi – fano va baqo xususida fikr yuritiladi.

Sharq falsafasi «Qur'on» va «Hadis»larda ilgari surilgan fikrlarga ko'ra, inson foniy dunyodagi hayoti uning oxiratini belgilaydi. Ma'lumki, sovet mafkurasi buni inkor qilganligi uchun ko'pchilik insoniylik mezonlariga qarshi yo'l tutishgan, oxiratni o'ylashmagan. Lekin hayot haqiqatidan ma'lumki, butun umri fosiqlikda o'tgan, uning evaziga hayoti yaxshi kechganligidan bu xususida umuman o'ylab ko'rmagan kas ham o'limi ko'ziga ko'ringanda o'z gunohlarini tan oladi, vijdoni qiynaladi. Hikoyada xuddi mana shu xaqiqat Xolxo'ja va Ochil obrazlari faoliyatida ochib beriladi. Hikoyani o'qigan kitobxon qahramonlar qalbidagi diyonatsizlikning tub asosi totalitar tuzumning o'zida degan xulosaga keladi. Buni Xolxo'ja, Ochil ochiq e'tirof etishadi. Ularni ajal bo'g'izidan olganda

o'rtada shunday gap kechadi: «To'g'ri-yu, lekin hamma yomonlikni shu dunyoda o'rgandik, shu yerda orttirdik barini. Odam bolasi dunyoga sof keladi, bu yerda orttirgan jamiki qabixliklarni; jinoyatu pastkashliklarni tashlab sof ketish kerak emasmi?»

— Bu gapingiz to'g'ri. Tirikchilik - asli tirriqchilik. U dunyoga ishonmaydi-da, ko'plar. Shuning uchun qo'rqmay kirdikorlarini qilaveradi.

—Boqiy dunyoning borligi uning ostonasiga kelganimizdagina yodimizga tushadi. Inson uning borligiga bir umr iymon keltirsa, kaptar kelib, quzg'un ketmaydi....dorilbaqo... ostonasida turgan kishi uchun fanoning o'zi ham, u tug'dirgan mudhish gunohlar ham hyech nima emas. Faqat ularni bu dunyoga tashlab ketish kerak. — Tashlab ketib bo'lar ekanmi... dedi Ochil, esankirab. — Bo'ladi, - dedi Xolxuja ... Kimgadir yorilish kerak. Yoriladiganing bo'lmasa yomon ichingda ketadi. Xanriyat mana...

Bu ularni baqo dunyo oldida tavba qilmshlari edi. Lekin ular bu fano dunyoda o'z hayotlarini imonsizlik asosiga ko'rganliklari tufayli o'lim chekingach, yana avvalgidek fosiqligini davom ettirishadi. Chunki ularning xamiri sosilistik jamiyatning o'zidan, ya'ni diyonatsizlik va imonsizlikdan qorilgan. Asqad Muxtor hikoya qahramonlari faoliyati va xatti-harakatidan kelib chiqib, insonni oxiratdan ogoh qiladi. U yozadi: «Azobli yo'lning barini bir-bir bosib o'tish kerak. Fanoda ham, Baqoda Xudovandi Karim bir insonga ikki dunyoni berib qo'yibdi. Ammo imonni boy berganga ikkalasi ham harom ekan...

Xayriddin Sultonning «Qog'oz gullar» nomli hikoyasi ham xarakterli. Hikoyada ikki xil inson qalbi, uning ma'naviy olami taxlil qilingan. Qishloqdan chiqqan olim Omon G'aniyev O'zbekiston Fanlar Akademiyasining muxbir a'zoliciga saylanadi.. U barcha tabrik va shodiyonlardan so'ng bolaligidagi iste'dodli do'sti Saydazimning kelmaganligini o'ylab o'tmishini eslaydi. Bu eslash odatdagi bolaligini, do'stlarini qumsash emas, balki hayotiy faoliyatini vijdoni oldida elakdan o'tkazish, o'ziga hisob berishdir. Bu holat o'zida ma'lum bir yuk tashiydiki, bu yuk ibratli bo'lgani uchun kishiga yuqumli va ta'sirlidir. Chunki unda tabiiylik bilan soxtalikni qiyoslash, hayotda to'g'rilikni, yaxshilikni tasdiqlash bilan kimlarnidir soyasida panohtopib, unga mumkin qadar yoqish yo'lini izlash, shu tufayli u bosgan yo'ldan uning yarim darajasiga erishishni inkor qilish va mana shu tipdagi kishilarni fosh qilish masalasi o'z ifodasini topgan. Omon G'aniyev o'zini Saydaz va Zarif Usmonovlardan kam iste'dodga egaligini biladi. Lekin, u o'rni kelganda vaziyatga moslashadi, biroq munofiq emas. Shundan u qalban qiynaladi. G'ani Ne'matov, Latipov kabi o'zganing fojiasidan boshqalarga suyunchi tilab ularga yaqinlashib olmaydi, undaylardan jirkanadi. U yozuvchi Omon G'aniyev xotirasi borasidan Saydaz obrazini yoritadi. Bu obraz Omon G'aniyev xarakteridan tamom farq qiladi. Saydazning bolaligi qiyinchilikda kechgan. Darsdan keyin ham boshqalar kabi o'ynab kulmagan. Unga vakti bo'lmagan, tirikchilikdan. Buning ustiga doim usti yupun edi. Lekin u mag'rur va favqulodda qobiliyatga ega edi. Omon yosh matematika o'qituvchisiga, uning xotinini ko'ziga yomon ko'rinib, bilib olgan narsasini Saydaz bir zumda hal qilardi. Saydazning hayoti ayanchli bo'lishiga qaramay, maktabda a'lo o'qir edi. Lekin mag'rurligi

nohaqlik oldida bo'yin egmasligi tufayli maktabda oltin medalga ilinmagan bo'lsa, iistitutga kirgach, shu xususiyatlari sababli 3-kursdan haydaladi. Armiyaga bordi, undan qaytgach dehqonchilik bilan shug'ullandi, umuman o'qishdan chetlanib ketdi, lekin odamgarchilikdan emas. Uning do'sti Omon G'aniyev Akademiyaning muxbir a'zosi bo'lgan bir paytda, u oddiy bir dehqonligicha qoldi. Biroq qalbning ona zamindek kengligi, dili har qanday g'uborlardan holi, buloqdek musaffoligi ham o'zgarmadi. O'zining bu insoniy xususiyatini u farzandlariga ham singirdi. Uning falsafasi hayotda «halol va birovga qaram bo'lmasdan o'z mehnati bilan, shuningdek, o'z iqtidoriga ishonib, e'tiqodiga sodiq qolib yashash. Shundan do'sti Omon G'aniyev o'g'li Nuriddinni o'qishga kirishida o'zining qo'li borligini aytganda yonib ketadi. O'g'lining yordam so'rab borganiga ishonmaydi. Agar shu rost bo'lsa, o'qishdan chiqazib olaman deb, do'stidan rostini aytishni so'raydi. U gapni aylantirgach, do'sti xarakteridagi zaiflikni his qiladi. Bu zaiflik o'zining qanday odamligini ko'rsatishga bo'lgan intilish edi. Mana shu gap tufayli u do'stining tantanasiga kelmagan edi. Biz bularning barchasini Omon G'aniyevning ichki iztiroblaridan anglaymiz. Hikoyani o'qish davomida Saydaz-Saydazim ko'zimizga ulug'vor ko'rina boshlaydi, garchi u hayotda oddiy odam bo'lishiga qaramay. Uning ulug'vorligi sofliğida, har qanaqa vaziyatda haqiqatni aytishida va o'z prinsipidan cheklanmasligidadir. Omon G'aniyevning o'z hayoti faoliyatida vijdoniga qarshi teskari ish tutganligini eslab o'kinishi, o'zidan Saydazni ustun qo'yishi soflik va haqiqatning hayotdagi tantanasidir.

Alisher Ibodinovniig hikoyalarida o'zgacha bir tendensiya ko'zga tashlanadi. Bu avvalo, hikoyadagi lirizmning kuchliligidir. Uning hikoyalari shunchalik tuyg'ularga, hissiyotga boyki, asar finaliga yetgach, kishi o'sha sehrlı go'zal bir olamdan ajralib qolganiga nadomat qiladi, hikoyani yana bir o'qishga kirishadi, ikkinchi o'qish davomida bu go'zal olamning zamirida yotgan chin mohiyatni anglab, o'z qalbida ham qandaydir o'zgacha, kishi so'z bilan anglatib bo'lmaydigan bir tuyg'udan fikr ummoniga g'arq bo'ladi. Bu jihatdan uning «Bir tomchi yosh», «Ko'l buyida» hikoyalari yorqin misol bo'la oladi. Avvalo bu hikoyalar ilgari surmoqchi bo'lgan ideyasining yuksakligi, u zamon va insoniylik muammolari bilan omuxtaligi jihatdan ajralib tursa, ikkiichi tomondan badiiy ijodning butun komponentlariga amal qilinganligi o'z samarasini ko'rsatgani, ya'ni bu narsa o'zgacha ohang kasb etgan hikoyaga. «Bir tomchi yosh» hikoyasining qahramoni Ma'suma. Biz voqyealar silsilasidan hikoya qahramoni Ma'sumaning butun fazilatlarini bilib boramiz, ya'ni uning go'zalligini, kitob o'qishiga yarasha didi borligini, ancha mulohazakor va hissiyotli qizligini, shuningdek, uning o'z oilasidagi hayoti va unga bo'lgan munosabati va nihoyat bu xonadonga kelin bo'lib tushganini. Hikoya ana shu qalbning go'zallik, nafosat olamining timsoli bo'lgan billur yurakning timsoligina emas, balki o'zi bo'lgan siymoni qattiq va tuzalmas zarba yeyishi bilan tugaydi. Ya'ni, ko'pmi-ozmi ona ta'siriga berilishi, tezroq mashinaga erishish ishtiyoqida hamma narsani unutish darajasiga yetgan eri Rajabbekning shafqatsizlik bilan qilgan muomalasi go'zallik, ezgulik,

nafosatlik, tuyg'unlik niholini yulib tashladi. Bu bilan o'sha muhitda, ya'ni Ma'suma yashayotgan qishloqda hayotni, yashashni faqat mehnat qilish, - u, bola boqish deb biladigan, dunyokarashi, hissiyoti hamma, hammasi o'zi yashayotgan muhitga moslashib ketgan kishilarning sonini yana bittaga orttirdi.

Yozuvchi Ma'sumaning holatini, kayfiyatini qisqa, lo'nda, zarbdor jumalarda beradi. Bu birinchidan konkretlik hosil qilsa, ikkinchidan, shery bir forma, to'g'rirog'i oq sher shaklini yuzaga keltirgan. Mana tasvirga va jumlar tuzilishiga e'tibor bering: «U ko'rna ustida yotolmay to'lg'ondi. Ichi qizidi. Nimadir yuragini kavlab, hol-joniga qo'ymasdi. Ko'nglini bo'shatgisi kelar edi. O'rnidan turib, she'r daftarini oldi. Yostiqa ko'ragini borib yoza boshladi. Nihoyat ko'ngli yorishdi, o'zini parday yengil his qildi. Vujudini shirin titroq bosdi.

Qorongi ko'chadan vizillab o'tgan mashinaning yorug'i tushdi. Masuma pastki labini tishlab, ko'zlarini sho'x o'ynatdi-da,. bir varaq qogozga yozdi:

Qirlarda lolalar ochildi,  
Yigit-qizga gilam payonoz,  
Sizni kuta bag'rim ezildi,  
Siz-chi, kimga aytasiz roz?

U bu she'ni erini o'qishi uchun yostiqa ustiga qo'yadi va o'zini uxlaganga soladi. Erining qadamini eshitib yuragi dukillaydi. She'ni o'qigach, erining qiladigan muomalasini xayolan ko'z oldiga keltirib, ko'ngli eriydi, shirin bir kayfiyatga beriladi. Lekin eriga xotining intizorlik bilan kutishi, uning she'ri qiziqirmaydi, balki sigirning oldida o't yo'kligidan butun dunyosi qorongu bo'lib, xotiniga dag'daga qiladi: «Padaringga la'nat senday xotinning! Sigir ochidan o'lay debdi-ku! Na o't yulibsan, na uydan bir nima topib solibsan! Yalpayib yotishingni qara!»

Hikoyaning finali go'yo musiqaning eng avjiga chiqqanda torning uzilishiga o'xshaydi. Tor uzilsa-da, uning kishi qalbiga o'tkazgan ta'siri uzoq saqlanadi, qulogi ostida, o'sha dastlabki kuy jaranglab turadi. Alisherni «Ko'l bo'yida» nomli hikoyasi haqida ham shunday tiniq tasvir na inson qalbining teran tahlilini, shuningdek, inkishofini ko'ramiz.

Shukur Xolmerzayev hikoyalarining fazilatlaridan biri kutilmagan yechimga egaligi va tasvirlangan har bir narsa, voqeya, detalning maqsad sari xizmat qilishi, qahramon xatgi-harakatidagi tabiiylik. Bu xususiyatni deyarli barcha hikoyalarida kuzatish mumkin. Lekin asosiy gap hikoya voqyealari zamiriga singdirilgan g'oyaniig salmog'ida, falsafiyligida. Agar u zaif bo'lsa, badiiy komponentlar har qancha mahorat bilan qo'llanmasin, hikoyaning kishi qalbidan joy olishi, kishi shuuriga ta'sir qilishi dushvordir. Sh. Xolmirzayev mumkin qadar g'oya salmog'iga ham e'tibor beradi.

«Kimsasiz hovli» hikoyasini o'qish davomida kitobxon pulga, boylikka mukkasidan ketgan ikki savdo xodimi - Hosila bilan Umarning qismati qanday nihoya topar ekan, ularning qilmishi uchun hayot qanday jazolar ekan deb o'ylaydi. Hikoya esa kutilmagan fojia bilan tugaydi. Ya'ni armiyadan kelgan yakka-yu yagona o'g'illari Ummatjonni itlari Jek chaynab tashlaydi. Kechasi

kelgan Ummatjon darvoza qo'ngirog'ini bosganda hyech kim sas bermaydi. Chunki uning ota-onasi kechasi eshik ochishni allaqachon tark etishgan edi. Qo'ng'iroqqa eshik ochmaslikka sabab ular hammadan, har narsadan qo'rqishadi.

Kutilmagan yechim bilan tugagan hikoyaning fazilati shundaki, uning ta'siri kishi qalbiga zarb bilan tegishi. Ma'lumki, zarb bilan tekkan narsaning og'rig'i kuchli bo'ladi. Demak, u kishi qalbida og'riq paydo qiladi. Og'riq esa so'zsiz izziz o'tmaydi.

70 yil davomida tamom boshqa sharoitda, ya'ni har bir qadam o'lchovli, faqat yuqoridan buyurilgan ishni bajarishga o'rgangan, mustaqil bir ish qilish u yoqda tursin, hatto fikrlash ham mumkin bo'lmagan bir sharoitda yashagan xalq, birdaniga mustaqillikka erishgach shoshib qoldi. Ko'plab avantyuristik harakatni boshlab, abgor holga tusha boshladn. Yozuvchiing o'sha davrda yozilgan «Ozoddik» hikoyasida xuddi shy holat qalamga olingan.

Hyech bir gunohi bo'lmagan Mansur o'z davrasidagilardan biri qilgan jinoyat tufayli 10 yilga kesilib ketadi. Bu ham totalitar tuzumning qiyofasini belgilab beradigan holatlardan biridir. Uning ozodlikka chiqishi, respublikannng mustaqillikka erishgan kunlariga to'g'ri keladi. Mancyp mustaqillikning samarasini

o'zning hayotida ko'rdi. U otasidan qolgan kulbani epaqaga keltirib sotdi. Puliga 3-4 sovliq olib, qirga ko'chib chiqdi. Do'sti Omonning ko'magida ikki uy, bir daxliz tikladi. O'ziga o'xshagan yetim g'aribgina qizga uylanib, qaddini tikladi. Hatto, tuzukkina ishga ham ega bo'ldi, ya'ni «tuqson chaqirimli masofodagi kabellarni nazorat qilib yuruvchilik» amaliga erishdi. O'g'il ko'rdi. Qishloq qariyalarini va do'st – birodarlarini chaqirib, osh hamda ziyofat berib, elga qo'shildi. Uning barchasi mustaqillikning sharofatidir. Agar avvalgi davr bo'lganda Mansur bularning birontasiga ham erisha olmasdi. Chunki, qamalib chiqqan odamni hyech bir korxonada ishgah olmasdi.

Hikoya juda katta falsafiy ramziylik bilan nihoyasiga yetadi. Mansur butun vujudidan mehr qo'ygan kakligini qafasdan ozod qiladi. Lekin kaklik garchi o'zi o'sgan makonda - tog' bag'ri, archazorda qo'yib yuborilgan bulsada, o'chib ketmaydi. Qafas atrofida o'ralashib, u bu narsann chuqilab yuraveradi. Unga ko'zi tushgan tulki pisib keladi. Tulkini ko'rgan kaklik qochish o'rniga unga qarab yuguradi. Chunki hovlida sarik, it bo'lib, u undan qochmas edi. Tulkini ham it fahmlab unga yem bo'ladi. Demak, mustaqil ish qilishga o'rganmagan kimsa, mustaqil yashay olmaydi. Shuro davrida shunday edi. Barcha yuqoridan aytilgan, buyurilgan narsani bajarishardi. Mustaqil bir ish qilishga ruxsat yo'q edi. Shundan mustaqilik qo'lga tekkach, ko'pchilik nima qilishini bilmay gangib arosatda qoldi. Mansur og'irlikka chidab iymonini yo'qotmaganini, ozodlikka tashnaligi uchun o'z yo'lini topdi. Ezgu xatti-harakati bilan boshqalarning ham ko'zini ochdi. Hikoyada bu fikr quruq aytilmaydi, voqyealar zamiriga singdiriladi. Yozuvchining mahorati ham ana shundadir.

Xulosa qilib aytsak, eng yaxshi hikoyalarimiz shuni ko'rsatdiki, hozirgi

zamon nasrimiz millatparvarlik qiyofasidagi milliy mahdudlik emas, bimalol dunyo adabiyoti bilan tenglashish yo'liga intilyanti.

#### **Tekshirish savollari:**

1. Bugungi kun hikoyachiligining o'ziga xosligi nimada?
2. Xikoyanavislik o'z ijodlarida asosiy nuqtani nimaga qaratyapti?
3. Ma'naviy-ahloqiy masalalar hikoyachilikda qanday o'z ifodasini topgan?
4. Tarixiy, voqyelik bugungi kun hikoyachiligida qandan yoritilyapti?
5. Bugungi kun hikoyalari totalitar tuzum davridagi hikoyalardan nmasi bilan farq qiladi?

#### **Tayanch tushunchalar:**

1. Badiiy tafakkur - ijodkorning hayot, jamiyat, kunlik turmush, inson xususidagi individual- o'y-fikrlari, mulohazalarini badiiy asar voqyealari, qahramoni xatti-harakati, faoliyati orqali ifodalanishi.
2. Hikoya- ayni kunlarda, o'tmishda kechgan, kechayotgan voqyelik haqida dolzarb badiiy umumlashma yasovchi hayot barometri; hozirjavob janr.

### **4-MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK QISSACHILIGINING QIRRALARI**

#### **R YeJ A:**

1. Ijtimoiy muammolar va milliy qadriyatlar aks etgat qissalar.
2. Mutelik ruhiyatining salbiy oqibatlarini ochib berilgan qissalar.
3. Afg'on urushning manzaralari orqali socialistik tuzumning sharmandali siyosati ochib tashlangan qissalar.
4. Milliy-ozodlik kurashchilari faoliyati va obrazlari yangicha tahlil qilingan qissalar.
5. Ma'naviy-axloqiy muammolar va inson illatlarning kelib chiqish asoslari teran tahlil qilingan qissalar.

#### **ADABIYOTLAR;**

1. Adabiy turlar va janrlar.1 jild. T. «Fan»... 1991
2. A.Abrorov «O'zbek povesti». T. «Fan» 1973 yil.
3. H.Karimov «Janrmi yoki uslub» T. «Fan» 1991.
4. H.Karimov «Davr va inson» T «Fan» 1992
5. H.Karimov «Milliy ozodlik kurashchilari va adabiyot» T. «Kamolot» 1997
6. H.Karimov Shukur Xolmirzayev «Kamolot» 1999
7. F. Olim «Milliy suz» T. «Yozuvchi» 1999.
8. A.Ulugov «Qissachiligimiz qirralari» T. «O'qituvchi» 1991
9. I. Mirzayev «Nasrimiz abadiy olami» T., 1991
10. I. Mirzayev «Adabiyot va davr dardi» T., 1990
11. So'z ma'suliyati, T. 1986
12. Haqiqat ijod bayrog'i. T., 1986

Ma'naviy uyg'oshin samarasi odamlarnng o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, avlod-ajdodlarimiz o'tmishidan faxrlanish, kelajak har kimning o'z qulida, mehnatida va ongli faoliyatida ekanligini his qilishida namoyon bo'lmoqda. Bugungn kunning vazifasi adabiyotni millatnng .ma'naviy va intellektual salohiyatini, odamlarnng akliy na ruhiy madaniyatlarini yuksaltirishga xizmat qildirishdir. Chunki olamni shu paytgacha aytib kelganimizdek, go'zallik emas, ma'naviyat va guzalik asraydi. Uni komil inson yuzaga keltiradi. Komillikni yuzaga keltirishda badiiy adabiyot muhim omildir. Buni yaxshi anglagan yozuvchilar shu yo'lda samarali ijod qilmokdalar. By borada H. Sulton, E.A'zamov, A.Ibodinov, Shoyim Bo'tayev, Normurod Norqobilov va boshqalarning ijodi katta rol o'ynayapti.

Qaysiki asarda nsoniy kechinmalar jarayoni iztiroblari, mehr-mohiyati, o'zinnng falsafiy talqinini topsa, voqyealar tarixdan chekinilmaydi. Yoritilsa, o'sha asar har qanday jamiyat o'zgarishlarida ham umrini tugatmay yashab qoladi. Xayriddin Sultonovning «Saodat sohili» qissasi ana shunday fazilatga egaligi bilan kitobxon qalbini zabt etadi va ma'naviy olamini boytish orqali o'z hayot yulinn tug'ri belgilashga imkon tug'diradi. Bu narsa esa o'z navbatida, jamiyatning insoniylashuviga, demokratiyaning yanada kuchayishiga ko'mak beradi va asos ham bo'ladi. Chunki xalqi komil bo'lgan jamiyatdagina adolat va iison manfaatlariga yo'naltirilgan qonun hukm suradi. Demak asar inson kelajagi uchun xizmat qiladi.

Qissa Bobur Mirzo umrining so'nggi kunlari voqyeasiga bag'ishlangan. Asarda voqyelik emas, insoniy kechinmalar, ya'ni insonning o'zi bosib o'tgai hayot yo'lini fikr elagidan o'tkazganda yuzaga keladigan iztirob, armon yetakchilik qiladi. Bu holatlar Toshkentdan Bobur kutubxonasiidagi nodir kitoblar bilan tanishish istagida kelgan tarixchi olim Hofiz Kuykiy bilan bo'lgan muloqotda o'z ifodasini topadi. Bu muloqotda bildirilgan fikrlar Bobur Mirzoning qalbiga tinchlik bermay kelayotgan iztiroblarining mihiyatini, ruhiy dunyosini inkishof qilish bilan birga, juda katta ma'rifiy kuch ham kasb etadi.

Kuykiy Bobur Mirzoning oldiga dastlab kirganda va uning «Ona yurtidan ko'p salom keltirdim, yurtimizning tabarruk yodi xotiralaridan ko'tarilmagan bo'lsa», - degan so'ziga u shunday javob beradi: «Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutgay? -deydi Bobur ohista. Ovozi titrar edi. - Unutgan kishining ko'zlariga tiriklayin tuproq to'lmasmi?» Bunday so'zni Vatan sog'inchi bir daqiqa ham qalbini tark etmagan kishigina ayta oladi. Ularning o'zaro suhbatlari asnosida Bobur Mirzo shoir, davlat arbobi bo'lish bilan birga, zukko tarixchi va faylasuf olim, kamtarin insonligi bo'y ko'rsatadi.

Bobur Mirzo keyingi paytda tushida ko'p dengiz ko'rishini, "Na dengizning noyoni bor, na yo'limning, vahm ichra qaro terga botib tentib yuramen..." munajimlardan so'rasam, «ul kanal inshoolloh saodat sohili bo'lur deydi, u qayerda o'zi», - deganda, Kuykiy beixtiyor «Saodat sohili - Vatanda, olampanoh», - deydi. Bu javobdan Boburning ko'zlari yalt etib, katta ochilib ketadi, chunki Kuykiy uning dilidagini tiliga chiqargan edi. Uning ichki iztiroblarining mohiyati ana shundadir.

Qissaning yana bir o'rnida Bobur shunday deydi: Eh, saltanat... Ne bo'lsa



Olohndan Shu Saltanat minnati umr bo'yi oyog'imga kishan bo'ldi, murodimga - g'ov... Lekin endi bir zur bilan jahl qilurmenu, bu kishanni tilka - tilka eturmen!». Afsuski,. bunga uning umri imkon bermadi. Bu falsafiy haqiqatning ma'rifiy qimmatiga kattaligiga hych kim shubha bildirmaydi, deb o'ylaymiz.

Mazkur adibning «Yozning yolg'iz yodgori» qissasi ham diqqatga sazovor. Uning qahramoni oddiy kishi — kolxoz bog'ining qorovuli. Asar dramatik dostondek chuqur ehtiros va uyg'unlik bilan yozilgan. Chunki qissada «Nega menga faqat sitamni ravo ko'rding? Yozug'im ne edi, xalloqi olam», deya samoga qarab nola qilayotgan, bugun umri toat-ibodatda o'tsa-da, kechmishi qora kunlarga to'la bo'lgan odamning qalb dramasi, uning o'z-o'zi kurashi yoritiladi. Bu iztirobga to'la qismatdan xulosa chiqarishda o'quvchiga adibning o'zi yordam beradi. Chunki osmondan kelgan sado - bu asli adibning ovozi. Adash Karvonning savoliga berilgan javob mohiyat e'tibori bilan muallifning munosabatini ifodalaydi. Yozuvchi umr kurashlardan chetda, mutelik bilan o'tgan bu qismatga o'z munosabatini bildirish uchun shunday vosita, yo'l tanlangan.

Asar qaxramonining qismati chigal. Uning hayotida g'am-g'ussa ko'p. Lekin yozuvchi bu qayg'u, g'am-tashvishlarning mohiyati nimada ekanligini asoslab bergan Adash Karvonning haddan tashqari xudojo'yliigi, hamma narsani xudodan deb bilishi - o'g'lini xo'rlagan, jabr yetkazgan nopok kimsalarga qarshi bormasligi, muteligini uning hayotdagi jamiki chigalliklarning asosiy sababchisi. Asarning butun pafosi, ruhi, g'oyaviy-badiiy maqsadi mo'minli, sustkashlik, o'z ertasiga loqayd qarash fojiaga, o'kinch, iztirob, armon, nadomatga olib kelishini ko'rsatishga yo'naltirilgan. Qissada inson hayotda halol, pok bo'lishi bilan birga, jamiyatdagi yaramas, qallob kimsalarga qarshi kurashishi, adolatga nisbatan loqayd bo'lmasligi, doim katta maqsadlar sari intilib yashashi kerak, degan g'oya ana shu achinarli qismat misolida ifoda etilgan.

Erkin A'zamovning «Javob» qissasida ham inson ma'naviyati masalasi hayot hodisalariga o'ziga xos yondashish orqali ochib berish tendensiyasi ko'zga tashlanadi. Unda hayotdan o'z o'rnini topish va maksadga erishish uchun kurashish va intilish kerak degan g'oya ilgari suriladi. Qissa qahramoni Elchiyev - shahar idoralaridan birida iqtisodchi bo'lib ishlaydi. U kamtar odam. Oilasida, ishxonasida hurmat qilishadi, ishonishadi. Elchiyevning institutni tugatgan qizi harbiy xizmatdan kelib, oliy o'quv yurtida o'qiyotgan o'g'li bor. U sevib uylangan. Oilasida hych bir kamchilik, yetishmovchilik yo'q, Ro'zg'ori oddiy. Lekin shu odam bir hodisa sabab bo'lib o'zgarib qoladi. O'zining joniga qasd qiladi. Ammo bu uni bezorilar kaltaklagani-yu, kasalxonada yotib chiqqani va shundan keyingi g'alvali mojarolar tufayli emas, balki o'zining «turish-turmushini,

atrofidagi odamlarning unga munosabatini chuqurroq o'ylab ko'rganidandir. O'zidan, yashash tarzidan noroziligi oqibati shunday kamsuhum, beozor halol odamni o'zgartiradi. U o'ziga qarshi o'zi isyon qiladi. Ana shu o'zgarishning ildizini ochish qissaning mohiyatini tashkil qiladi. Bu borada yozuvchi shunday yozadi: «Elchiyev bu hisobda alam-nadomat bilan shunga amin bo'ladiki, qashshok zavqdan bebahra yashadi. Jo'ngina ro'zg'orlik! oddiy kumursqacha tirikchilik g'ami! Kunim o'tib turibdi-ku,

qornim to'q, ustim but-ku, deb yuriveribdi-ko'ngil to'qligini uylab ham ko'rmabdi  
axir odam kun sanamoq uchun  
keladimi bu dunyoga? Essizx umr! Bunday g'aribgina g'imirsib kun  
kechirgandan kechirmagan afzal!

Yana shunga iqror bo'ldiki, hayotdan qo'rqib yashabdi. . . Avvaliga xotinini, topgan baxtini o'ylab qo'rqibdi, keyin bola-chaqasini o'ylab qo'rqibdi, kattaroq bir ishga bel bog'lagani jur'ati yetmabdi, ikkilanibdi, hadixsirabdi. Boriga shukur qilib, qanoat qilib yashayveribdi, intilmabdi».

Elchiyev o'z-o'zi bilan kurashlardan, uzoq qiynalishlaridan so'ng shu falsafani tushunib yetadi.

Ma'lumki, mustaqillik qo'lga kirguncha bo'lgan davrda yozilgan ilmiy ishlar va badiiy asarlarda milliy ozodlik kurashchilari obrazlari odamlar tinchini buzuvchi va xalq xujaligiga juda katta zarar keltiruvchi, xotin-qizlarning nomusini bulg'ovchi, tutgan ishining deyarli barchasi yovuzlikdan iborat kimsalar qilib tasvirlangan. 80-yillarning o'rtalarida yuzaga kelgan qayta qurish siyosati va SSSRning parchalanib ketishi tufayli yillar davomida xalqdan sir tutilib kelingan tarixiy hujjatlarni o'rganishga va yoritishga imkon tug'diradi. Oqibatda ko'p narsa oydinlashadi. Jumladan, milliy-ozodlik harakatining yuzaga kelishi va ularning aslida kimligi ochib berildi. Bu narsa asarlarda ham o'z ifodasini topa boshladi. Yosh yozuvchi Bahodir Murod Alining «Ko'kto'nliklar» qissasi shulardan biridir. Qissa hayotiy jarayonning mumkin qadar aslida qanday bo'lsa, shunday yoritgani va yozuvchilik mahorati bilan ajrab turadi. Xo'sh, bu nimalarda ko'rinadi?

Birinchidan, asarda voqyelik emas, inson qismati, taqdiri, uning dard va alami tasviri yetakchilik qilishi; ikkinchidan, insonning ruhiy olami tuyg'usi, tortgan iztirobi, dunyoqarishi samimiylilik va katta insoniy dard bilan inkishof qilinishi; uchinchidan, insonga sinfiy yondoshishdan holi inson sifatida qarashi va bor hamda fazilatlarini tasvirlanishi; to'rtinchidan, masalasi mohiyatda tarixiy nuqtai nazardan to'g'ri yoritilishida ko'rinadi.

Qissa voqyealari uchta yetakchi qahramon faoliyati, qismati asosiga qurilgan. Bular MILLIY-OZODLIK kurashchilarining rahbarlari - Asqaralibek, Shomirzabek va qizillar yo'lini tutgan mulla Jaloliddin. Bu uch obraz faoliyati va ular bilan bog'liq bo'lgan shaxslar xatti-harakati uch olamni tashkil qiladi. Lekin shunga qaramay bu olamlar yaxlitlikka ega.

Qissa voqyeasi Asqaralibekni xiyonat tufayli qo'lga olinib, to'laga tashlanganidan boshlanadi. Asar syujeti esa Asqaralibek xotirasi asosiga qurilgan. Xotira quruk bayon qilinmaydi, balki tasvirlanadi. Tasvir voqyealari esa Asqaralibekning ruhiy dunyosini inkishof qilishga, qismati va fojiasiniig mohiyatini ochishga yo'naltirilgan. Oqibatda syujet rivojida Asqaralibek kishi ko'z oldida ulug'lashib boradi. Chunki uning o'z xatti-harakati va hayotiy hodisalar hamda jarayondan chiqargan xulosalari katta falsafiy umumlasmaga ega bo'lib, vatan taqdiri va milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga imkon beradi.

Ma'lumki, fosiqlar dunyosi va munhatlik (tubanlik)ning asosi iymonsizlikdir. Biz kechagi 70 yillik hayotimizga nazar solar ekanmiz, buning haqiqatligini chuqur anglaymiz. Chunki socialistik jamiyat deb atalgan

tuzumda kishini iymonli qiladigan qadriyatlarga - diniga, azaliy urf-odatlariga, milliy ruhiyatga hujum qilingan edi. Oqibatda odamlar bo'g'izigacha iymonsizlik botqog'iga botdi, ayniqsa, keyingi 30 yil ichidagi avlod. Lekin har qanday adolatsizlik, diyonatsizlik jamiyatida ham go'zal xilqatlar, insoniylik yo'qolmaydi. Shundaylarning sharafiga ezgulik hamisha g'olibdir. Yosh yozuvchi Jamila Ergashevaning «Zubayda» nomli qissasi xuddi shu, ya'ni qalbdagi og'riqqa bag'ishlanganligi bilan muhimdir.

Qissa yangi tamoyil yo'nalishida yozilgan. Unda totalitar tuzum paytida chop etilgan ko'pchilik asarlardagi kabi qahramonlari o'sha davrning yetakchi mafkurasi izmida harakat qilmaydi, ularning barcha faoliyatlari - tuyg'ulari, hissiyotlari, o'y-fikrlari, orzu-umidlari, yangilishlari, xatti-harakatlari o'ta tabiiy, jonli hayotiydir. Shuningdek, unda voqyelik emas, insonning qismati, fojiasi, dardlari, fosiqlar tufayli yuzaga kelgan qalb og'riklari - suvaydo yetakchilik qiladi. Bu hol so'zsiz asarga mahzunlik kasb etgan. Mazkur mahzunlik qissani o'qish davomida kitobxon qalbiga ham ko'chadi. Og'riq paydo qiladi.

Qissa voqyealari ezgulik va fosiqlik dunyosining inkishofi asosiga qurilgan. Ezgulik olamini Zubayda, Qurbongullar tashkil qilsa, fosiqlik, munhatlik dunyosi Normurod, Hikmatullo, Matlablar faoliyatida o'z ifodasini topadi.

O'tashbek hayotligida olam Zubayda ko'ziga g'oyat go'zal, odamlarning barchasni ma'sum ko'rinardi. Fosiqlik dunyosiga duch kelmaganidan butun olamni ezgulik chulg'agan deb bilardi. Chunki uning o'zi va eri O'tashbek pokdimon hilqatlar edi. Lekin hayot Zubayda uylaganicha emas, ayniqsa 70 yillik zamon hazrat Navoiy aytgandek «Yomonga gul berdi, yaxshiga deb xor, . . . yomonga baxt berdi, yaxshini badbaxt» edi. Qissada xuddi shu haqiqat Zubayda va Qurbongul qismatida o'z ifodasini topadi.

Zubayda eri vafotiga uch oy bo'lganda fosiqlik dunyosiga duch keldi. «Bir kuni kechasi nafasi kaytib uyg'onib ketdi, ammo yelkalaridan bosib turgan ikki qo'l o'rnidan turishga quymasdi: -Yanga jim! Bolalar uyg'onib ketadi. . . "Normurod?! Siz. . . - Ha, men. Menman yanga, qo'rqmang, - u hansirab o'tmoqqa urinardi. . . Zubaydaning nafasi qaytib ketdi. - Ahmoq, iflos! -. katta-katta davralarda sovrin olib yurgan polvonni yelkasidan oshirib tashlashga zo'r berib urinar edi. ~ Vijdosiz! Hali akangning tunrog'i sovumasdan turib. . .»

Zubayda uning bu iflosligini ichiga yutdi. Eriga ko'p yaxshiliklar qilgan qaynagasi Bektosh akadan andisha qildi:

Ma'lumki, inson murakkab xilqatdir, ayniqsa fosiq va munhatlar. Ularning har bir xatti-harakati g'arazli maqsad sari yunaltiriladi. Ular inson ruhiyatini anglashda ham ancha bilimdon shaxs hisoblanadi. Birlari (Normurod singari) inson tug'ularini jumbushga keltirib, iroda bukish hisobiga o'z maqsadiga erishsa, o'zgalarni esa o'ta ziyoli, aqlli, xoksor ko'rinishga intilib, o'zlari xususidagi yaxshi fikrlarni g'oyat sekinlik bilan uyg'otib borib, maksadga erishadi. Bu kabilar g'oyatda xavfli shaxslardir. Chunki bundaylar kishining ham jismiga, ham mulkiga chang solishadi. Jamila Ergashevaning insonlarning bu xususiyatini suzda emas, xatti-xarakati, faoliyati tasvirida ochib berishi kishini xursand qiladi. Bu xususiyat Hikmatullo obrazida o'z ifodasini yaxshi topgan.

Hikmatullo Xubaydaga haqiqiy oshik, uning shikasta ko'ngliga malham

bo'lishga ishontirishga intilganda katta maqsadni ko'zda tutgandi. Ya'ni O'tashbekdan qolgan hovlini sotirib, mashinaga ega bo'lish tarallobedod qilib yurishni Zubayda esa uning iltijo va na'dalarini keskin rad etolmadi. Normurod bilan bo'lgan voqyeadan keskin rad ham etolmasdi. Ko'p o'tmasdan Hikmatullo masalani kundalang qo'ydi. Ayniqsa, Zubayda «Qizingiz tekkan juvormagning katta xotini o'z og'zi bilan aytibdi. U juvormag, onasiga «Nozi ko'p ekan, mashina olib olay, javobini berib yuboraman» degan haqiqatni Bektosh akaning qizi orqali eshitgach, taqdiridan fig'on chekdi. Bu fig'on faqat Zubaydaning fig'oni emas, ezgulik olamining fig'onidir.

#### **Tekshirish savollari:**

1. Milliy qadriyatlarning tiklanishida qanday omillar rol o'ynadi?
2. Inson komilliginiig yuksalishida qaysi ijodkorlarning asarlari muhim rol o'ynayapti va nimaga?
3. Milliy ozodlik kurashchilari obrazlari istiqoldan avvalgi adabiyotlarda qanday yoritilgan? Istiqoldai keyin bu borada qanday asarlar yaratildi va qanday baho berildi?
4. Bugungi kun qissalarida qanday mavzu yetakchilik qilyapti?
5. Bugungi kun qissalarining o'ziga xosligi nimada?

#### **Tayanch tushunchalar:**

1. Milliy xususiyat ifodasi - biror millatning, xalqning o'ziga xos xususiyatlarini - ruhiyati, urf-odati, an'analari, tili, diniy e'tiqodi, axloqini buzmasdan, haqqoniy yoritilishi.

2. Epizod - nisbiy mustaqillikka ega bulgan asar voqyeasi badiiy asarning bo'linmaydigan eng kichik qismi; asar syujetining uzviy xalqasi, asosiy tarkibiy qismi; badiiy asardagi yordamchi syujet chizig'ida uchraydigan xarakterlarning ayrim qirralarni yoritishga xizmat qiladigan qism.

### **5-MAVZU: BUGUNGI O'ZBEK ROMANIDA DAVP, TARIX, ZAMON MASALASI**

#### **REJA:**

1. Romanning jamiyat ma'naviy taraqqiyotida, inson kamolotida tutgan o'rni. Analitik qahramonga ega bo'lgan romanlar.
2. Tarixiy va ijtimoiy voqyelik o'zining haqiqiy ifodasini topgan romanlar.
- Z. Totalitar tuzum illatlari tub mohiyati ochib berilgai romanlar.
4. Roman janridagi izlanishlar: modernistik yo'nalishdagi romanlariing yuzaga kelishi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Adabiy turlar va janrlar. T., «Fan», 1991. .
2. Z.H.Karimov. Inson va davr. T., «Fan», 1992.
- Z. A.Kattabekov. Tarix saboqlari. T., 1985.

4. I.Mirzayev. Nasrimiz badiiy olami. T., 1991. 5.U.Normatov. Romanning yangi yo'llari. «Yozuvchi» gazetasi, 1997 y 4 iyun.

Sirtan qaraganda hozirgi davr adabiyoti eksperimental adabiyotdek taassurot qoldiradi. Haqiqatan ham ke yingi yillar ichida shunday asarlar (Omon Muxtorning «Kuzgu oldidagn odam», «Tepalikdagi xaroba», «Ffu» romanlari, Shoim Butayevning «Muyulishdagi uy» qissasi va b.) vujudga keldiki, ularning zamirida yotgan adiblar niyatini maxsus tayyorgarliksiz anglash qiyin. Chunki an'anaviy uslubda emas, g'arbnng modernistik adabiyot deb atalmish yunalishida yozishgan. Ma'lumki, bu tarzda adabiyotda obyektiv olam, voqyelik, inson, uning xatti-harakati, u yashagan yoki yashayorgan jamiyat muhiti, mafkurasi yozuvchining tasvir obyekti bo'lmay, balki insonning ularga munosabati, tutrirog'i, uning tafakkur yunalishi asosiy obyekt sanaladi. Kitobxon bevosita qahramon bilan emas, uning tafakkuri bilan munosabatga kirishadi, qahramon esa yozuvchi tomonidan yaratilgan inson emas, tabiiy harakati, shuuri ila go'yo o'zini-o'zi yaratgan (albatta, shartli ravishda), yozuvchini o'z ong oqimi yo'nalishiga soladigan intellektual shaxsdir. Lekin adabiyotshunoslik ilmidan ma'lumki, insoniy bir holatdan ikkinchi holatga soladigan, ezgulikka undaydigan, komil insonga aylantiradigan narsa shakl, katta, falsafiy tafakkur emas, shu tafakkurning asos-zaminida yotgan mohiyatdir. Agar biz hozirgi romanlarga shu mohiyat nuqtai iazari bilan yondashsak, ular shaklan yangi bulgani bilan mazmunan asl uzbek adabiyoti an'analariiii eslatadi.

Biz adabiyotda insonning baxti va baxtsizluy, boshiga tushgan kulfat va fojiasiga jamiyat aybdor deb sharhlashga urganib qolganmiz. Lekin jamiyat abstrakt narsa ekanligin, u inson -faoliyati orqali realikka aylanishini, sa'y-harakati tufayli yuzaga kelishinm, inson manfaatlari uchun ijobiy yoki salbiy rol o'ynashi uni boshqaruvchi insonga boglikligiii uylab kurmaymiz. Hano mumtoz adabiyotdagi -adolatli shoh obrazi talqiniga dunyoqarashning cheklanganligi deb unga qarshi chiqqanmiz. Antik dunyo adabiyotiping tamal toshini qo'ygan Esxil, Evrinid, Sofokllarning takdiri azallik g'oyasiga ham qarshi chnqib, uni imkor qilganmiz. Lekin botipan hamisha bir narsaga tan berib kelganmiz va his qilganmiz. Ya'ni inson tiynatidagi insoniy xususiyatlar - hallollik, diyonatlilik, iymonlik uning taqdirida katga ijobiy rol uynashini. Ma'lumki, bu ijtimoiy masala islom dani ta'siridagi adabiyotning bosh masalasi hnsoblangan. Butungi kunda buni haqiqat ekanligini ochiqchasiga tan ola boshladik. «Ffu» romani asosida xuddi shu masala yotadi. Adib kechagi o'zi yashagan xayogga va uning hosilasiga Sharq falsafasi nuqtai nazaridan yoidashib, o'z qarashlarini asoslaydi. Bu borada o'zining haqligini bosh qahramoni Mulla Toshpo'lat va uning oilasi faoliyati tasvirida ishontiradi.

Ma'lumki, insonning barcha harakati ham faoliyat bulmaydi. Ma'lum bir insoniy ehtiyoj, maqsad sari qaratilgan harakatgina faoliyat sanaladi. Shoyim Bo'tayevning «Qo'rg'onlangan oy» romanidagi obrazlarning barcha xatti-harakati faoliyatdir. Chunki ular yozuvchi maqsadiga bo'ysundirilgan. Sirtan qaraganda qahramonlarning faoliyati bilan bogliq voqyealar bir-biriga

uzviy bog'lamagandek tuyuladi. Shundan romanni komiozision tarqoq deb xulosa chiqarish mumkin, ayrim adabiyotshunoslar. Lekin unday emas. Voqyealar yozuvchining ilgari surgan konsensiyasi - tafakkur yo'nalishi orkali uzviy bog'lanadi. Demak, mazkur roman ham yangi yo'nalishda yozilgan. Ya'ni totalitar tuzum paytida yozilgan asarlar kabi qahramon faoliyati hukmron mafkuraga bo'ysundirilmagan, nutq irod ettirilmagan. Ular erkin harakat qilishadi, o'zi yashagan muhit, sharoit, zamonning xususiyatlarini ruhiyatlarida mujassam etishadi. Shundan ular faoliyati zamirida yotgan yozuvchi konsensiyasini ilgab olish qiyin. Uning uchun fikrlash darkor. Demak, roman voqealari tafakkur elagidan o'tkazilsagina adib niyati anglashiladi. Anglash esa ma'naviyat sari qo'yilgan qadamdir. Chunki yuqorida aytganimizdek, tafakkursiz ma'naviyat yuzaga kelmaydi. Demak, asar insonni komillikka undaydi, uning ahamiyati ham shundadir.

Roman ikki fasldai iborat. Biriichi qism «Avvalgi fasl», ikkinchisi esa «So'nggi fasl» deb nomlanadi. Shoyim Bo'tayev bejizga romanini shunday faslga bo'lmagan. U birinchi faslda otalar hayoti turmush tarzi, ruhiyati bilan kishini oshno qilsa ikkinchi faslda kechagi jamiyat tili bilan aytganda, kelajak avlod - yoshlar hayoti qalamga olingan.

«Avvalgi fasl»da faoliyat ko'rsatgan qahramonlar -Ubaydulla chavandoz, Zokir bulbul, Tirkash bobo, Rashid bobolar tabiatga juda yaqin kishilar. Ular Urtaqaynar qishlog'i, uning Rangon tog'ining har bir giyohini, hayvonot olamini behad seaadilar va ardoqlashadi. Ular tabiat bilan inson qismati ko'rinmas rishtalar bilan bog'langanligini his qilishadi, abadiy qobiliyatlariga bo'ysunishadi. Ubaydulla chavandoz Rangon tog'lariga oq bo'kan (sayg'oq) yana qaytib kelganini qishloq odamlariga aytganda barcha sevishadi. Chunki bu jonivorlar bu yerni tark etganiga ko'p yillar bulgan edi. Ularsiz toglar ham bir g'arib, rangsiz holga tush kolgan Ok bukanlar bilan ezgulik qaytib keldi. Chunki ular shafqatsizlik tufayli o'z makonlarini tark etgandi.

Haqiqatni idrok etishning uch xil yo'li bor. Ya'ni nisbiy, mutloq va ilohiy bilish. Haqiqatning qaysi turini anglash kishining tarbiyasi, bilimi va tafakkurini ham darajaligiga bog'liq. Totalitar tuzum davrida faqat nisbiy haqiqat, ya'ni kommunistok partiyaning «rosti» anglandi. Mutloq hakakti -davr, zamon yaratgan axloqiy qiymatning tub mohiyatiga shuuri yetgan kishi ta'qib qilindi. Ilohiy haqiqat - yaratganni bilishga mutloq quyilmadi, Nisbiy haqiqatni anglatgan, uni o'zlashtirganlarning yo'liga esa shayton aralashgan. Bu yo'l ularni borsa kelmas sari boshladi. Chunki shaytonning ishi jahannam qariga boshlashdir. Lekii hayotda ilohiy hahiqatni anglaganlar bor edi. Romanda bu kabi hilqatlar Ubaydulla chavandoz, Zokir bulbul, Tirkash bobor, Rashid bobolar tilida o'z ifodasini topgan.

Mashhur Kolumbiya yozuvchisi Gabriyel Garsiya Markes «Shuni bilingki, tabiatning muvozanati buzilsa, unda yashovchn nnsion ham o'z qiyofasini yo'qotib qo'yadi» degan edi. Romanda bu fikrning haqiqat ekanligi Murtazo faoliyati orqali asoslangan va kishi shuuriga singdirilgan. U O'rozmat aka bilan Fotima ayaning yolg'iz farzandi. Uydagi inoqlik, ota-onaning bir-biriga bo'lgan mehri uni shafqatli, andishali, odamlarga, tabiatga o'ta mehrlri, shafqatsizlikdan

nafratlanadigan qilib tarbiyaladi. Hatto kap-katta bo'lganda ham, qushnisi Ismat jo'jaxo'roz so'yganda, «Amakijon, tovuqni quyib yuboring!» - deb yalingan.

Xulosa qilib aytganda, roman inson qalbida ona tabiatga nisbatan mehr uygotadi, unga ruhan yaqinlashtiradi, qahramonlari qismatida iisonnyatni islom va e'tiqodga da'vat etadn, inson aslida tabiat farzandi ekanligidan ogoh qiladi, inson va tabiat muammosining yangi qirralarini ochib beradi. Muhimi, yozuvchi yangicha mazmunga yangicha shaklni uygunlashtira, olgan.

Abbos Saidning «Besh kunlik dunyo» romanida masala emas, odamlar tasvirlanadi, ularning tashvishi, qismati, taqdiri, fojiasi qalamga olinadi, zohiriy dunyosi va botiniy olami ochib beriladi. Bizningcha, bu eng muhim masaladir. Axir jamiki katta narsalar, zabt etish yo'lidagi sa'y-harakat va intilishlardan maqsad odamni odam bo'lishi, odamlarncha yashashi emasmi? Albatta. shunday. Demak, oxir-oqibat jamiki urinishlar inson masalasiga borib taqaladi. Romanga Rauf Parfining she'ridan «Bandanga tuzim ber, yer ber, imon ber» parchasi epigraf qilib olingan. Bu, o'z navbatida, yozuvchining konsensiyasini, romanning motivini belgilaydi.

Roman syujeti chizigini bosh qahramon Anvar faoliyati. bilan bogliq bo'lgan voqyealar tashkil qiladi. Mazkur voqyealar orqali turfa odamlar na ularning taqdnrlari, Anvarning oilasi hayoti tasvirida esa oddiy o'zbek oilasining turmush tarzi o'z ifodasini topgan. Mazkur oila a'zolari va ular bilan munosabatda bo'lgan kishilar xatti-harakati vositasida esa jamiyat va insoniy illatlar ochib berilgan.

Anvarning kasbi jurnalist. O'n yildan beri respublikaning nufuzli gazetalarining birida ishlaydi. Lekin to'g'ri so'zligi, soffligi, har bir narsaga adolat bilan yondashishga urinishi ba'zi bir hamkasblariga yoqmaydi. Ayniqsa, Mirkarim Nirriyev, Sadridin Qurbonqulov, Tuhfa, bosh muharrir Sharif Yunusovga. Bularning eng nastkashi Nirriyev. Uning qanday shaxs ekanligi Anvar bilan iste'dodli yozuvchi, lekin hayotga ochiq ko'z ila qaragani tufayli jamiyatda o'z o'rnini topa olmagan Hakim Mansur o'rtasida kechgan suhbatda oydinlashadi: «Ishdan bo'shab ketishimga shu Nirriyev sabab bo'ldi. Aldam-qaldam ishlar bilan shugullanishayotganini betiga aytsam, darrov kirib yetkazibdi-da akam!

-Gapirmang, u bilan birga uqiganman. Uning qanday inson ekanini besh qo'lday bilaman, - asabiy tarzda stolni chertishni quymasdi Hakim Mansur.

-O'z manfaati yulida otasidan ham kechvoradigan kimsa. Men sizga bir voqyeani aytib berayin». Bu voqyeadan shu narsa ma'lum bo'ldiki, u ijaraga uy axtarib, ko'chama-ko'cha izgib yurganda, Hakim Mansur o'z ijara uyiga olib keladi. Uy sohibasining eri kesilib ketgan, eri ham, o'zi ham yaxshi odamlar bulgan. Pirrisi bir kun, ichib kelib ana shu ayolga tashlanadi. bu qilmishi uchun Hakim Maysur urganda, uning bir barmogini tishlab oladi. Mana shunday kimsa gazetada kommunistik axloq bulimini boshqaradi. Bu jamiyatning ma'naviyat dunyosining tanazzulidan dalolatdir.

Bosh muharrir Sharif Yunusov esa uyda uzatiladigan qizi bulishiga qaramay, o'z xodimasi Tuhfa bilan don olishadi. Ularga Sadridin uz uyini bushatib beradi. Pirriyev kabilar esa uning kuz-qulog'i. Bu holni Anvar

kurib qolganda, mening to'grimda bulmagur igvo tarqatibdi, deb uz qilmishining oldini ola boshlaydi. Uning xotini Barnoxon Anvarning ayasi Sobira aya tikkan kuylagiga pul olmagan uchun bu safar ham borishii istaydi. Anvar bir narsaga hayron. O'zlarini nihoyatda olijanob, halol ko'rsatib yuradiganlarning aksariyati fosiq shaxslar. Lekin shundaylarning oshigi olchi. Amal kursi ham o'shalarniki. Hakim Mansur, Anvarga uxshagan xalq manfaatini, Vatan taqdirini ko'zlob ish tutadigan, sof, halol kishilar esa bundaylarga tobe. Anvar hayron bo'lgandek, kitobxon ham unning mohiyatini anglab olisada qiynaladi. Mulohazaga beriladi. Fikrlash borasida bu narsa oydindashadi. Kechagi jamiyatimiz fosiqlar makoniga aylangan jamiyat ekan.

Pirimqul Qodirovning «Ona lochin vidosi» romani kami ma'naviy olamini boyitish orqali uz hayot yulini to'gri belgilashga imkon tugdiradi. Bu narsa- esa, o'z navbatida, jamiyatning insoniylashuviga, demokratiyaning yanada kuchayishga asos ham buladi. Chunki xalqi komil bulgan jamiyatdagina adolat va inson manfaatlariga yo'naltirilgan qonun hukm suradi Demak, roman inson kamolotiga xizmat qiladi. Xo'sh! Asarning bunday ijobiy ta'sir kuchi nimalarda kurinadi?

Birinchidan, tarixiy voqyelik inson faoliyati, qismatidai ayri holda emas, balki chambarchas bog'liq holda tasvirlanganligida.. Ikkinchidan, inson iztiroblariga sababchi bo'lgan vaziyatning kelib chiqish sababini tahlil qilish borasida bizga tanish bulgan siymolarning - Shohruh Mirzo, Gavharshodbegim, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Abulqosim Bobur, Abusaid Mirzo, Yodgor Mirzo, Alouddavla, Abdulatif va boshqa qator tarixiy shaxslarning qanday insonlar ekanligi inkishof qilinganligida va ularga nisbatan avvalgi mafkuraviy qarashlarga aniqlik kiritib, oldingi tasavvurlarni tuzg'itib yuborganida. Uchinchidan, insoniy iztirobga duchor kilgan voqyealar mohiyatini ochib berish borasida shaxsning botiniy duossini kursatishda. To'rtinchidan, eng muhimi, odamiylik, ma'naviyatning zamini, ildizi ilmda ekanligini hayotiy shaxslar misolida o'z isbotini topganligida. Asarning bu fazilatlarini kitobxon voqyealar olamida anglab oladi. Bunga u mushohada qilish orqali erishadi. Chunki yozuvchi tirixiy voqyelikka bulgan uz nuqtai nazarini ogzaki bayon qilmagan, romanning syujet chizigi zamiriga singdirgan. Asar voqyealarini shu tarzda qurish yozuvchi mahoratidan dalolatdir.

Ma'lumki, tsmurnizodalarnng ko'nmilngi jo'mard shaxslar o'lib yetishgan. Bunda Bibixonimning xizmati kattaligi tarixdan a'lum. Lekin bunday xizmatnn Saroymulxonimdan so'ng Gavharshod yegim zimmasiga tushganligini jamoatchilik bilmasdi. Qantaga bu rinda noxush fikrlar yurardi. Badiiy asarlardagi talqiilarni qigan kitobxon nahotki Shohruh Mirzodek shaxsning zavjasi, lug'bekdek allomaning onasi shunday deb hayron bulardi. Nirimqul 1,odirov mazkur asari bilan oldingi shubhalarni tarqatib yuboradi.

Zukkolikning belgisi bilimdon, zehni utkirlik bilaigina yelgilanmaydi, balki fikr nuri bilan inson tiynati orqali uning iyatipi o'qib olish, yuz berishi mumkin bo'lgan voqyeani oldindan nglab olish ila namoyon bo'ladi. Bu xususiyat Bibixonimda borligini inlardik, mazkur asar orqali Gavharshod begim ham shunday xususiyatga ega asl bo'lganligini bilaniz.



Ma'lumki, inson o'z davri odamlaridan andoza oladi, uz navbatida, ulardan o'z qiyofasinn qidiradi, xuddi shuning oqibatida 'zini yanada yaxshiroq aiglashga intiladi. Bunga badiiy ijod, ya'ni xayotni kengroq epik kulamda ichdan tasvirlash xususiyatiga ega bulgan romanlar imkon beradi. Keyingi yillarda yuzaga kelgan romanlarda shunday hol ko'rinyanti. Ularda voqyealar bevosita tasvirlanmasdan, shaxs tafakkuri prizmasidan o'tish orqali va o'y-xayollar, tasavvurlar ong oqimi orqali fikr moxiyati ildizi sari yunaltirilyapti. Bugungi romanlarning yangi tamoyillari xuddi ana shundadir.

### **Tekshiruv savollari:**

- 1.Roman janrida nasrimizning qanday izlanishlari uz ifodasini topyapti?
- 2.Bugungi kun romanining yangi tamoyili nimadan iborat?
- Z.Modernistik yo'nalishdagi romanlar kanday xususiyatga ega?
- 4.Keynngi yillarda qanday tarixiy shaxslar obrazi yaratilgan , eomanlar yuzaga keldi va ularning badiiy xususiyatlari nimada?

### **Tayanch tushunchalar:**

1.Analitik obraz - o'ziing har bir harakatini, faoliyatini, tutgan ishini taxdil qiladigan, o'z kamchiligini o'zi anglaydigan va to'g'irlyay oladigan aqd-idrokli, mulohazali shaxs obrazi.

2.Inson konsepsiyasi - shaxsning har bir voqyea-hodisaga muht va sharoitga o'ziga xos mustaqil yondashishi, fikrlashi, qarashi.

## **O'ZBEK FANTASTIKASI TARIXI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI**

### **REJA:**

- 1.O'zbek fantastikasining tarixi, fantastikaning turlari.
- 2.Butungi o'zbek adabiyotida fantastik hikoyachilik sohasidagi izlanishlar.
- 3.Fantastik qissalarda ijtimoiy hayot bilan bog'liq holda genetik masalalar xususida fikr yuritilishi.
- 4.Fantastika va siyosat.
- 5.Hozirgi o'zbek fantastikasida g'oyaviy-badiiy izlanishlar.

### **Adabiyot:**

- 1.R.M.Ibrohimova. Fantastika va hayot. T., 1998.
- 2.R.M.Ibrohimova. Janr fantastika v uzbekskoy sovetskoy literatury. T., 1987.
- Z.N.Shermuhamedov. Davr qahramon taqdirida. T., 1970.
- 4.Gayrat Jalolov. O'zbek folklorida janrlararo munosabat T.,1976.
- 5.Hozirgi adabiy jarayonning aktual problemalari. T., 1984.
- b.Mirzayev I. Nasrimiz badiiy olami. T., 1991.

O'zbek fantastikasining tarixi xalq og'zaki ijodga borib taqaladi. O'tgan voqyealar haqida hikoya qiluvchi og'zaki hikoya va qissalar xayoliy uydirmalar asosida vujudga koladi. Insoniyat uchar gilam, uchar ot, ochil dasturxon, hizr suvi orzu qilish orqali u istaklarini bayon qilib, baxtli hayot haqida o'ylashgan Fantastikaning turi ko'p. Masalan, ilmiy fantastika, sarguzasht fantastika, narigi dunyo xususidagi va boshqalar. Keyingi yillarda ilmiy fantastika kuchaydi. By hol ilmiy texnikaning rivoji bilan bog'liqdir. Hozirgi zamon adabiyotida Tohir Malik, Xojiakbar Shayxov, Mahkam Mahmudov, Abror Qosimov, Baxtiyor Hoshimxo'jayev, Murod Xidir kabi fantast yozuvchilar samarali ijod etmoqdalar.

Ma'lumki, hozirgi ilmiy fantastika asosan to'rt yo'nalishda taraqqiy etmoqda. Birinchisida ijtimoiy dunyoqarash bilan bog'liq bo'lgan genetik shakl yetakchilik qilsa, ikkinchisida yosh avlod tasavvuriga ta'sir o'tkazish ko'zda tutiladi. Uchinchi yo'nalish uchun sirli va qiziqarli syujet muhimroq bo'lsa, to'rtinchi tur asarlar negizida salmoqli fantastik fikr yotadi.

Hozirgi o'zbek fantastiklarining qiziqarli, g'ayrioddiy syujet va fantastik obraz yaratish sohasidagi tajribalari ma'lum samaralar berayotir. Tohir Malik va B.Hoshimxo'jayevning «Zaharli g'ubor» qissasi shu jihatdan diqqatni jalb etadi.

Qissa qahramoni - Charlz Long favqulodda iste'dodli bo'lib, uch yoshida kollejni bitirgan. London va Garvard universitetlarida tahsil olib, turli fanlar bo'yicha olimlik darajasiga yetgan. Yigirma yoshida Galveston universitetida nazariy fizikadan dars bergan. Biroq tez orada universitetni tashlab, uyida, yer ostida qurgan laboratoriyasida ilmiy ish olib boradi. To'rt yil mobaynida ilm-fandagi «marra»larni bosib o'tadi. Uning uchun olisdagi kishining fikrini o'qish, o'zi yasagan temir panjalar mahkamasidagi hujjatlarni qo'lga tushirish, hatto Sahroi Kabirdagi qumbarxanlarini ko'chirish hych gap emas.

Long qudratli kuchga ega bo'lgan analizator yasab, uni o'z miyasiga ulaydi. Shuning uchun ham u miya faoliyatidan to'la-to'kis foydalanadigan yagona inson edi. Uning miyasiga kelgan har bir fikr maxsus uzatgich orqali analizatorga o'tar, analizator esa bu fikrlarni ajratar, saralar, ularning reallashiga yordam berar edi. Nodir ilmiy iste'dod va uning samaralari Longga tinchlik bermaydi. U o'zini buyuk qudrat sohibi deb e'lon qiladi va butun koinotga hukmronlik qilmoqchi bo'ladi. U o'z erkiga qarshi chiqqan kishilarni xalqlarni, hatto butun yer yuzini yakson qilib tashlash niyatidan ham qaytmaydi. Xullas, fan yutuqlarining jinoiy ishlarda asqotish mumkinligi masalasi bu asarning g'oyaviy mundarijasini belgilaydi. . .

Long o'zining jinoiy ishini amalga oshirish uchun maslakdosh olimlar va hatto jinoyatchilardan yordam kutadi. U nomi polisiya mahkamasidagi ro'yxatda bo'lgan Tom Jonsolni muttahaamlar sayyorasiga, tibbiyot va tabobat sohasida katta ish qilayotgan Sharl Gomeskunni esa Farg'onaga yuboradi.

Muttahaamlar sayyorasida Yerdan badarg'a etilgan galvestonliklar, Farg'onada esa inson umrini uzaytirish masalalari bilan shug'ullanayotgan olim Ismoil Umidov istiqomat qilardi.

Umidov garchand umrini uzaytirish muammosi bilan shug'ullansada, u neyrofiziologiya, biofizika kabi fanning ko'ngina sohalari bo'yicha taniqli alloma va fazogir ham edi. Shuning uchun ham BMT xuzurida qudrat sohibiga qarshi

kurash komiteti to'zilganda, SSSR Fanlar Akademiyasi bu komitetga uning nomzodini tavsiya etadi.

Ana shu tarzda qissada bir-biriga zid qutblar naydo bo'ladi. Garchand ularning har biri iste'doddi olim bo'lsalar-da, ular o'z maqsad va insoniy fazilatlariga ko'ra, bir-birlarining antipodlari edilar. Charlz Long nazarida fan insoniyatni bo'ysundirish quroli bo'lsa, Umidov xalqqa xizmat qilish, nurli kelajakka erishish, xususan inson umrini uzaytirish vositasi edi.

Fantastlar oldida turgan muammolardan yana biri o'zga sayyoralardagi hayot tasviri va u yerda yashovchilarning obrazini yaratish bilan bog'liq. Garchand olis sayyoralarda yashovchilar obrazini, qay yo'sinda yaratayotganlariga e'tibor bersak, ulardagi qandaydir g'ayritabiiylikka bo'lgan maylni sezish qiyin emas. Chunonchi, «Olis sayyora» qissasidagi (Shayxov) o'zga sayyoraliklarning uchishga moslashgan qanotlari bo'lsa, «Kelgindilar» hikoyasidagi o'zga sayyoraliklar ko'zga ko'rinmaydilar. «Tasodifiy qo'nish» hikoyasidagi jonzodlar esa timsohga o'xshagan, allaqanday to'rt oyoqli bahaybat mahlukdir.

O'zga sayyoraliklar obrazini yaratishda har qanday uydirma ham yozuvchi uchun asqotavermaydi. Eng muhimi, ular portretining xususiyatlari shu sayyoraning tabiiy to'zilishi bilan uyg'un bo'lishi kerak.

O'zga sayyoraliklar obrazini yaratishda ularning yerliklar bilan aloqa vositasi ham muhim o'rin tutadi. H.Shayxovning «Kelgindilar» hikoyasidagi notanish jonzodlar orasida til bo'yicha mutaxassis olim ham bor. U har qanday jonli mavjudot bilan gaplasha oladi. Faqat buning uchun o'sha jonli mavjudotlarning miyasi tarqatayotgan biotoklar va elektromagnit to'lqinlari tarkibini maxsus asboblardan yordamida sinchiklab o'rganish lozim.

«Olis sayyorada» qissasida esa gemmaliklar ayollar sochini jingalak qiluvchi mashinaga o'xshagan qalpoqni kiyib, yerliklar bilan gaplashadilar. Yerliklar yasab bergan bu qalpoq ularga fikr uzatish vositasi va ayni paytda tarjima apparati sifatida xizmat qiladi.

Abror Qosimovning «Ko'kdagi faryod» hikoyasi voqyealari Samarqand va AQShda kechadi. Anvar Soliyev va uning hamkasblari Samarqanddagi qayta restavratsiya qilingan va ishga tushirilgan Ulug'bek rasadxonasida xizmat qiladilar. Koinotdan yuborilgan radiosado ham shu yerda qabul qilinib olinadi. Asar qahramonlari - Anvar va Gulnora. Afrosiyob tepaliklarida - o'lik shahar ustida sayru suhbat qiladilar. Ular kosmik sadoni yozib olgan kezlarda esa aqldan ozgan bir to'da amerikalik olimlar o'zlari kashf etgan qurolni sinashga taraddud ko'radilar. Bu qurol asa meteogallaktikadagi sayyorani halokatga olib kelgan qurolning ayni o'zginasi edi. Shunday qilib, butun Yer yuzini o'lik vodiya aylantirish, koinotdagi hayot deb atalmish mo'jizani barbod etish xavfi tutilgan edi.

Odatda fantastlar kelajakka nazar tashlaydilar. Ularning diqqat-e'tiborida kelajak manzaralari turadi. Lekin shunday ilmiy-fantastik asarlar ham borki, fan yutuqlari ularda o'tmish hayot sirlarini ochishga qaratiladi. Shu jihatdan Tohir Malikning «Falak» ilmiy-fantastik qissasi ayniqsa diqqatga sazovordir. Adabiy

faktlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek yozuvchilari milliy voqyelik bilan bog'liq masalalarni ko'targanlarida va milliy kalorit bilan sug'orilgan fantastik sharoitlarni yaratganlarida sezilarliroq ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritmokedalar.

Qissa asosida Biofizika Institutining olimi Jahongir Aliyevning kashfiyoti tufayli yuzaga kelgan fantastik voqyealar yotadi. Olim kashf etgan fantastik asbob - ellaoma Aliyevning

yigirma yillik ijodiy izlanishlari samarasi bo'lib, bu asbob qachonlar olamdan o'tgan insonlarning hayot yo'lini, ularning ma'naviy dunyosini tiklay oladi. Bu qissadagi yetakchi fantastik motivdir. Ana shu motivni yoritish asosida asar to'qimasiga yangi syujet chizig'i kirib keladi. Ellaoma apparati tajribada sinab ko'riladi. O'tkazilgan tajriba natijasida Buloqboshidagi qabristondan topilgan ikkita toshqabul ichidagi shaxsning takdiri tiklanadi. Bular Ulug'bek davrida yashab o'tgan alloma Shamsibek va uning xotini Mahfuza edilar.

Qissa bizni faqat professorning kashfiyoti va ellaoma apparati va uning qudratli kuchi bilangina emas, balki qator murakkab qiziqarli obrazlar bilan ham tanishtiradi. Bular professor Aliyevning o'g'li Jamshid, do'stlari arxeolog Sulton Umrzoqov va yozuvchi To'lqin, professorning hayotda o'z o'rnini topa bilmagan, yashashdan maqsad nimaligiga tushunib yetmagan, har bir narsaga shaxsiy manfaat nuqtai nazaridan yondashuvchi qarindoshi Akbaralidir. Shunday qilib, qissada ikki zamon - XV va XX asr voqyealari parallel tasvirlanadi. Asarda bu bir-biridan olis ikki davr voqyealarining berilishi bejiz emas. Zeroki, XV asr Ulug'bekning qatl etilishi kabi sirli, dahshatli voqyealar bilangina emas, balki rasadxonaning bunyod etilishi, yulduzlar katalogining to'zilishi, tabiiy fanlarning benihoya yuksalishi, xullas, Uyg'onish davrining tipik voqyealari bilan ham Sharq tarixiga kiradi. XX asr qanchalik buyuk ilmiy-texnik inqilobi asri bo'lsa, **XV asr ham** Sharq tarixi uchun qariyb shunchalik ahamiyatga molikdir.

Olis davr voqyealari asarning badiiy to'qimasiga tasodifiy hollar shunchaki kirib kelmaydi. Agap Aliyev ma'lum ma'noda Shamsibekning ilmiy izlanishlarini yangi fan asrida davom ettirsa va elektron ellaoma yaratsa, uning antipodi bo'lgan Suhrob Xo'jayev olim sha'niga isnod keltiruvchi ishlar bilan shug'ulanadi. Garchand Abdurahob bilan Suhrob Xo'jayev o'rtasiga tenglik alomati quyish mumkin bo'lmasa-da, ular hayotida ma'lum umumiylik bor. Abdurahob hamqishlog'i Mahfuzaning unga emas, balki Shamsibekka nasib bo'lganini kechira olmagandek, Xo'jayev ham Ma'rifatning Aliyevni tanlaganidan alamzada yuradi. Ana shu alamzadalik, yozuvchi talqiniga ko'ra, XV asrda qanday yomon oqibatlariga olib kelgan bo'lsa, XX asrda ham shunday xunuk voqyealarni boshlab kelishi mumkin.

Ikki davr o'rtasidagi fikr chaqiruvi bu bilangina tugamaydi. Aliyevning olis qarindoshi Akbarali ham qissa sahifalariga XV asrdan Abdurahoblar muhitidan kelib qolgandek tuyuladi. Qarindoshining ulkan kashfiyotidan chala-chulpa darak topgan Akbarali ellaomadan ham o'z maqsadida foydalanmoqchi bo'ladi. U savdoda uzoq yillar ishlagan otasi yashirib ketgan tillalarni Aliyev ijod etgan apparat topishi mumkinligiga umid bog'laydi.

Ana shu qissada fan bilan bid'at, xalq manfaati bilan xususiy manfaat, yuksak niyat bilan jinoyat - qaysi asr voqyealari tasvirlanishidan qat'iy nazar

yonma-yon paydo bo'ladi.

Fantastika badiiy adabiyotning mahsuli bo'lgani uchun u siyosatdan holi bo'lolmaydi. Unda siyosat real muammolarning fantastik material bilan kesishgan nuqtasida yuzaga keladi. Ma'lum ma'noda fantastik adabiyotda siyosat masalasi real hayotdagi siyosiy muammolarning oynadagi aksi hamdir. Keyingi davrda fantastik adabiyotda madaniy, iqtisodiy masalalar bilan bir qatorda siyosatga doir masalalar ham o'rin olgani. Harbiy texnika, yadro quroli o'ta taraqqiy etgan borishi bilan bu masala ancha avj oldi. Bu borada H.Shayxovning "Mutamah" ilmiy-fantastik hikoyasini misol keltirish mumkin. Hikoya asosida fantastik shahar - Irot hukumati hududiga qarashli davlat chegarasini noma'lum kema bo'zib o'tgani va shuning oqibatida yuzaga kelgan vaziyat tafsiloti yotadi.

Hikoyada ko'tarilayotgan masala - fantastik shahar Irot ahlining qirilib ketish xavfi, ekologiya masalalari va yana bir qator yondosh masalalar - tinchlikni saqlash voqyealar zamiriga singdirib yuborilgan. Hikoyadagi fantastik obraz - mutantda davlatlararo mavjud nizomlarga amal qilmaslik oqibatida fojii ahvol yuzaga kelishi mumkinligi o'z ifodasini topgan. Mutantga nisbatan chora ko'rilmasa, u butun shahar aholisini, daraxtu imoratlarni, umuman yer yuzidagi hayotni yo'q qilib yuborishi mumkin.

Hikoyadagi e'tiborga loyiq o'rinlardan biri yerliklar xususidagi fikr: - «Yerlik mavjudotlarga sira tushunib bo'lmaydi, -deydi kema darg'asi fig'oni chiqib. - Ularda tajovuzkorlik mayli shunaqangi rivojlanganki, har qanday yovuzlikni keltirishi haqida o'ylab ham o'tirishmaydi».

Bu jumlada siyosat bilan bog'liq o'rinlar o'z ifodasini topgan. Haqiqatan ham yovuzlik yovuzlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa bir necha omillarga bog'liq. Lazer nuri ta'sir etmagan mutantni «qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan o'lik sahroga aylangan zihlang Orolga boshlashadi. Sahroda boshlangan tuz bo'roni, olisda osmonga qaragan ulkan quyun - tarkibida gerbosid, nestisid singari zaharli moddalar to'lib-toshgan bu mudhish quyun sharsimon maxluq - mutant bilan to'qnashib, uni yemirib yubordi».

Shu tipdagi siyosatga oid ikkinchi bir asar ham H.Shayxovning qalamiga mansub. Uning «G'aroyib ko'lanka» qissasida shahardagi axlat uyumlari ekologik muhitni ifloslashi misolida bu hol qanday fojiali natijalarga olib kelishi mumkinligi masalasi Orolni qutqarish, asrash xususidagi qaroridan ancha oldin ko'tarilgan.

H.Shayxovning bu ikki fantastik asarida ko'tarilgan masala real hayotda jamiyat oldida real hayotda jamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biri ekanligi aniq seziladi. Fantastik hamohang bo'lsa, u siyosatdan holi emasligi shunchalik ayon bo'ladi.

### **Tekshirish savollari:**

- 1.O'zbek fantastikasining ildizi nimaga borib taqaladi?
- 2.O'zbek fantastikasining o'ziga xosligi iimada?
- 3.O'zbek fantastlari o'zga sayyoraliklarni qay yo'sinda

yaratishyapti?

4.Fantastlar nimaga nazar tashlaydilar?

5.Fantastikaning siyosatga aloqasi bormi?

### **Tayanch tushunchalar:**

1.Fantastika - fantaziya so'zidan olingan bo'lib, xayol, tasavvur, g'ayritabiiy voqyealar orqali ijtimoiy, siyosiy masalalar ko'tarilgan va ochib berilgan badiiy asar.

2.Galaktika - Quyosh sistemasini o'z ichiga olgan yulduzlar sistemasi, Somon yo'li.

## **7 - MAVZU: YANGI BOSQICHDA GI O'ZBEK DRAMATURGIYASI**

### **REJA:**

1. Xalqning ma'naviy talablarini qondirishda dramaturgiyaning o'рни.
2. So'nggi davr o'zbek dramaturgiyasida socialistik tuzum illatlarining fosh qilinishi.
3. So'nggi yillar o'zbek dramaturgiyasida ma'naviy-axloqiy masalalarning yangicha yo'nalishda, yangicha tafakkur bilan yoritilishi.
4. Komediyalarda hayotdagi illatlar va nuqsonlarga nisbatan murosasozlikning ortishi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. X.Abdusamatov. Teatr tanqid ko'z gusida. T., «Fan» 1993 yil.
2. S.Aliyev. O'zbek dramaturgiyasida yangi uslubiy izlanishlar, «O'zbek tili va adabiyoti» 1993 yil, 1-son, 15-bet.
3. B.Imomov. Dramaturgik mahorat sirlari. T., 1991 yil.
4. T.Islomov. Tarix va sahna. T., 1998 yil.
5. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. T., 1995 yil.
6. M.Qo'shjonov. Dramaturgiamizdagi yangi sahifa. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» 1996 yil 31 may.

Zamon bilan hamnafas bo'lishda, xalqimizning ma'naviy talablarini qondirishda dramaturgiya zimmasiga, uning so'z va sahna san'atlari bilan aloqador xosiyalariga muvofiq, alohida g'oyaviy estetik vazifalar yuklangan. Ma'lumki, adabiyot va san'atning gullab yashnashi jamiyatning ma'naviy barkamolligi, muhit sog'lomligiga bogliq. Ma'naviy sog'lom muhitni yaratishda adabiyot va san'atning roli beqiyosdir. Ijodkor hayot haqiqatini qanchalik to'g'ri anglay olsa, muammolar mohiyatini to'g'ri ochib bersa, uning asarlari xalqqa shunchalik ma'naviy naf keltiradi. Bu borada dramaturgiya ham alohida rol o'ynaydi. O'zbek dramaturgiyasida O'.Umarbekov, Sh.Boshbekov, M.Boboyev, A.Ibrohimovning asarlari alohida o'rin tutadi. Ularning dramalarida sovet tuzumidagi o'zbek voqyeligining muayyan tomonlari dramatik yo'sinda badiiy talqin qilingan.

O'lmas Umarbekovning dramalarida kommunistik mafkura hukmron davrda ham istiqlol ma'naviyati, axloqqa xizmat etuvchi muhim va asosiy sifatlar o'z ifodasini topgan. Dramaturg an'anaviy otalar va bolalar munosabatlari, o'zaro axloqiy qarashlari zaminida istiqlol davri uchun o'ta zarur ma'naviy-axlohiy sifatlarini saqlash, asrab-avaylash yo'lida qat'iy o'ziga xos yo'l tutganligi ham kuzatiladi. Xususan «Sud», «Kuzning birinchi kuni» kabi dramalari xarakterlidir. «Kuzning birinchi kuni» nomli pyesasi shu jihatdan alohida ajrab turadi. Asarda uch oila boshiga tushgan fojining sabab va mohiyati uch xil anglash, uch xil baholash tarzida umumlashtiriladi. Masalan professor Tohir To'laganovning o'g'li Ramz oilada

erka o'sgan. Farhod esa otasi, onasi Qumri ona voyaga yetkazgan yolg'iz farzand. Sobir bo'lsa uzoq yillar ichki ishlar sohasida samarali va halol mehnat qilgan va nafaqaga chiqqan Shokir Sultonovning kamtorona oilasi farzandi. Taqdir ularni institutda uchrashtirgan. Ular orasida Ramzning qo'li baland, qayerga cho'zsa yetadi. Sobir va Farhod ham uning ta'siriga tushib qolgan. Kunlardan birida fojia sodir bo'ladi. Ramz otgan miltiq o'qi ko'chadan ketayotgan odamning umriga zavol bo'ladi. Xuddi shu fojia uch oilaning bir - biridan ayrib turuvchi ma'naviy ahloqiy qarashlarini muhokama qilishga, dramatik talqinga va umumlashtirishga asos beradi. Pirovardi fojianing zamini ochilib, professor To'laganovning o'g'li Ramz o'z gunohini bo'yniga olib: «Endi qilmayman, dada, - deganida ota o'g'liga qarata: «Dard bo'ladi. Yaramaslar. Itdan tarqaganlar. Xuliganlar. Banditlar. - deb haqorat qiladi. Shunda Ramzning onasi Barchin opa endi qilmaydi, dadasi, rahm qiling deb iltimos qiladi. G'azablangan ota jahl ustida oilada gazak olib kelgan ma'naviy-axloqiy nopoklikning sir-asrorini ochib tashlaydi.

To'laganov: «Rahm qilingmish? Shu nonko'r, shu tekinxo'rga-ya. Odam bo'lmadi u, dardisar bo'ldi Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor... yo'q men bunga mutlaqo qushilmayman. Aksincha, bolali uy mozor. Sen mani ajalimdan besh kun burun mozorga tiqasan, yaramas. Ammo bilib qo'y. Men endi himoya qilmayman. Shuncha yordam qilgandim, himoya qilganim yetar, institutga kirolmading, shogirdimga rahmat... seni qabul qilishda, yiqilding, yanailtimos qildim, baholaringni tuzatib berishdi. Restoranda to'palon qilib, milisiyaga tushding. Bir yilga kesishmoqchi edi, olib qoldim: .Mast bo'lib xushyorxonaga tushding. Yana olib kelib qo'yishdi. Endi o'n yilga kesishsa ham roziman. mani, otaning qadrini qamoqxonada bil endi».

«Qiyomat qarz» dramasi bosh qahramoni Sulaymon ota. Uning psixologik holati ishonarli tasvirlab berilgan. Chunki muallif psixologik holatga kirishi uchun zarur bo'lgan muhitni yarata olgan.

Sulaymon ota halol, mehnatsevar, birovning haqidan qo'rqadigan, to'g'ri so'z nuroniy chol. Yolg'iz farzandidan ajrab qolgan ota, qishloqqa vrachlik qilish uchun kelgan No'monjon ismli yigitni o'z farzandi singari mehr qo'yib frontga jo'natadi, u ketayotib otaga ikkita qo'y olib beradi. Yillar o'tib qo'ylarning soni to'rt yuztaga yetadi. Urush tugasa ham asrandi o'g'ildan darak bo'lmaydi. To'rt yuzta qo'yni

«Qiyomat qarz»ni o'z egasiga topshirish Sulaymon otaning tinchini, oromini oladi. Psixologik tasvirning birinchi bosqichi ruhiy vaziyat yaratildi. Shundan so'ng, bosh qahramon qator ruhiy kechinmalarni boshidan kechiradi. Qo'ylarning egasiga, topshirish hissi, Zebining vasiyatini ado etish mas'uliyati dramada ruhiy tas'irni yuzaga kelishiga asos bo'ladi. «Zebi xola: No'monjonga atab oldim buniyam, Sulaymon ota», - Obbo , san-ey. Yaxshi-yaxshi. — Zebo xola — siz bo'lsangiz, kimmiz unga deysiz. Urushdan keyin kelaman degan, sizlar bilan turaman degan. Kelmasa. . . kelmasa. . . Sizni kimga tashlab ketaman? Huvillagan hovlida-bir o'zingiz.»

Muallif inson qalbidagi e'zozlanishi zarur bo'lgan qirralarni topgan. Sulaymon ota uchun Zebidan, uning vasiyatidan ko'ra azizroq narsa bo'lmagan,



xuddi shu holatni dramada ishonarli ochib berilgan. Bu holatni hych bir tomoshabin befarq tomosha qilmaydi., o'zining huzur-halovatidan kechib, Sulaymon ota No'monjonni qidirishga tushib ketadi.

Uzoq yo'l yurib, ham jismon, ham ruhan charchagan ota, No'monni ko'rib butun charchoklarini esidan chiqarib yubordi. Butun jismi bilan, quvonchu tashvishlari bilan unga talpindi. Biroq u otaning quvonchini, xursandchiligini cheksiz hayajonini sezishni, tushunishni xohlamaydi.

-Nazarov, xo'sh? keling? - Sulaymon ota. - Xo'shing nimasi? Meni tanidingmi? - Nazarov. Kimsiz? yo'q tanimadim. - Sulaymon ota: - Barakalla: O'zimam tanimaysan deb o'ylovdim. Men seni tanidim».

Sulaymon otaning xatti-harakatlarini erinibgina, mensimay kuzatib turgan Nazarov, otani tanimaslikka harakat qiladi, uni bag'riga bosib, o'zini tiyolmay yig'layotgan bosh qahramonga «o'zingizni bosing» deb buyruq beradi. O'zini yig'idan to'xtatolmagan ota «Qanday bosay, o'g'lim?! O'ttiz yil kutdim seni. Yo'lingda ko'zlarim to'rt bo'ldi. Ko'rmay o'lib ketamanmi deb qurquvdim, Zebixolanga o'xshab. – Zebixola kim? – Sulaymon ota: - ko'zing aytib turibdi, qo'rqib ketding. Qo'rqma. Qari bo'lsam ham, hali birovga tashvishim tushgani yo'q. Esingdami, urishga ketayotganingda menga ikkita qo'y tashlab ketuvding. Nazarov: - Qo'y? Sulaymon ota: - Ha. Ikkita hisori qo'y. Nazarov: E, bo'ldi, bo'ldi, esimga tushdi. Xo'sh? Sulaymon ota: - Shu qo'ylar to'rt yuztaga yetdi. Nazarov: - To'rt yuzta?» .

Qo'ylarning daragini eshitgan No'monjon endi butunlay o'zgaradi. «Obbo otaxon-ey... Obbo siz-ey! qo'ylar xech hayolinga kelgani yo'q. Lekin ana boraman, mana boraman bilan vaqt o'tib ketar ekan, shuncha yil o'tib ketibdi. Lekin baribir borardim. Sizni bir ko'rib kelardim».

Qo'ylarning to'rt yuztaga yetganini eshitgan No'monjon otaga soxta iltifot qilishga o'tadi. No'monjon: - Ota! To'xtang! Sulaymon ota: - Men senga ota emasman. O'sha o'ttiz yil oldin mening oldimdan urishga ketgan yigitga otaman. Bu dunyoda ham, u dunyoda ham. Senga emas».

O'ttiz yil bolam deb, qalbining eng tubida asrab kelgan, uning hayollari bilan, uning iztiroblari bilan ko'milib yashagan Sulaymon uchun bir lahzada hammasidan judo bo'lib qolish oson ish emas edi.

Ma'lumki, dramada qahramonning o'ziga xosligini belgilashda remarka muhim va asosiy omil hisoblanadi. Bu borada Sh.Boshbekov asarlari yaqqol misol bo'la oladi. Uning «Temir xotin» nomli jiddiy komediyasining bosh qahramoni Qo'chqorning xarakter sifatida shakllanishida remarka katta rol o'ynaydi. Qo'chqorning yashash sharoitining qanday ekanligi, u haqida dastlabki xarakteristika drama boshida berilgan remarkada beriladi: «Qishloqdagi oddiy kamtarona hovli. To'g'rida bir necha ustunli peshayvon, o'ngda pastgina peshayvon ko'cha eshik, oldiroqda yog'och karovat. Sahnadagi har bir jixoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi. Eshik deraza romlari yarmi bo'yalgan, qolganining rangi o'chib ketgan, yog'och karovatning bitta oyog'i yo'q. O'rniga g'isht terib qo'yilgan, ko'rpa yostiqlarga yamoq tushgan, piyolalarning labi o'chgan yoki chegaralangan, choynakning jumragiga tunika kiygizilgan va hakoza».

Keltirilgan remarkadan bosh qahramonning yashash sharoiti, uy jixozlarining ko'rimsizligi, tunu kun mehnat qilsa ham yaxshi yashamaganligining guvohi bo'lamiz.

Holat tasviri remarkasida bosh qahramon faoliyatidagi holat tasvirlanadi. Bu remarkasi bosh qahramon obrazining shakllanishida ahamiyati katta bo'ladi. Qo'chqorning dastlabki harakatlari, ya'ni tomashabinga yaqinlashish jarayonidagi uning kayfiyati muallifning dastlabki remarkasi amalga oshiriladi.

Avvaliga Alomatning gaplariga mensimay qarayotgan Qo'chqor, endi o'zini boshqorolmay qoladi. Ta'sirlanib ketadi. "Qalbingizni unitilib ketgan, o'zingiz ham bilmaydigan, alla qaysi burchaklarida mintillagan ushoqqini norozilikdan qo'rqasiz", - deb aytgan gapi Qo'chqorni cho'chitib yuboradi. Chunki u temirdan bunday gap chiqishgini kutmagan edi. Alomatning bu gaplarida Qo'chqorning armoni, fojeasi yotadi. Qo'chqor endi chidolmaydi, sira-sira taqot qila olmaydi. Alomatning keyingi gaplarini hayojon bilan kutib turgan Qo'chqor qalbidan sizib chiqayotgan ko'z yoshlarini yashirishga urinadi. Muallif aynan shu vaziyatni "ko'zlarida yosh o'ynab" remarkasi bilan tasvirlaydi. "Ko'zlarida yosh o'ynab" remarkasida bosh qahramonning ichki iztirobi, alami, erkak kishining ayol oldida yerga urilayotgan g'ururi ifodalangan. Qo'chqorning ruhiy kechinmalari muallif tomonidan berilgan remarkada o'ta ta'sirli ifodalangan. Dramatizmni kuchaytirish uchun muallif remarkasi katta ahamiyatga ega. "Barrala yig'lagancha oyoq ostidagi yashiliklarni zarb bilan tepib, yosh bolaga o'xshab engashib yig'laydi. Alomatning yelkasidagi qizil mikrosxemani oldi-da, qo'shni hovli tomon o'tilib yubordi".

Qo'chqorning fojiasi avvalo umrini behuda o'tkazgani, tunu kun mehnat qilib biror kun ro'shnolik ko'rmaganidadir. Muallif ushbu komediyani tom ma'nodagi tragik komediya deyishga haqli. Chunki Qo'chqorning butun orzu va umudlari Alomatning gaplaridan so'ng chilparchin bo'ldi. U o'z hayoti manisiz ekanligini his qildi. Bu nafaqat Qo'chqorning, balki minglab "qo'chqor" ning ham fojeasidir.

Navbatdagi qo'yilgan mikrosxema Qo'chqorning fig'onini ko'kka chiqardi. Chunki uning to'g'risida turgan robot ayol bosh qahramonning na ko'z yoshi, na alam, na qayg'usi bilan ishi bor!". Alomat (kuylab) "Yana o'ynaylik, Yana kuylaylik, iqbolimiz parloq ekan davron suraylik. Iqbolimiz parloq ekan davron suraylik! (To'xtovsiz aytaveradi). Alomat aytgan qo'shiqning mazmunidagi "Iqbolimiz porloq ekan" jumlasida Qo'chqorning baxtsizligi "Davron suraylik" jumlasida mujassamlashgan. Shuning uchun Qo'chqorni na nasihat, na maqtov, na yig'i tinchlantiradi. U ham qaysar boladek hyech narsaga ko'nmaydi".

70-80 yillar o'zbek dramaturgiyasida yaratilgan qator asarlar o'zbek xalqini mustaqillikka ma'naviy jihatdan tayyorlashda xizmat qildi va ulardagi qator qahramonlar kitobxonlar ongida va teatr sahnasida hamon yashab kelmoqda.

#### **Tekshirish savollari:**

1. Hozirgi o'zbek dramaturgiyasining umumiy ahvoli qanday?
2. Bugungi kun o'zbek dramaturgiyasida ma'naviy-axloqiy masalalar qanday yoritilyapti?
3. O'.Umarbekov dramalarining o'ziga xosligi nimada?

4. Sh.Boshbekov dramalarining yangiligi nimada?
5. Dramada bosh qahramonning o' rni va ahamiyati qanday?

### **Tayanch tushunchalar;**

1.Adabiy qahramon - adabiy asardagi inson obrazi. Badiiy asardagi qatnashuvchi shaxslar va personajlarga nisbatan adabiy qahramon deb qarash mumkin bo'lgan o'ziga xos xulq va xarakterga ega bo'lgan odam.

2.Remarka - muallif izohi ma'nosini bildiradi. Unda asarda ishtirok etuvchi shaxslarning yoshi, tashqi ko' rinishi, xatti-harakati, kiyinishi, qalb kechinmasi, so'zidagi intonasiya, shuningdek, voqyealar kechadigan shart-sharoit, payt, o' rin kabilarning izohlanishi.

## **8-MAVZU: BUGUNGI KUN PUBLISISTIKASI VA DAVR MEZONI**

### **REJA:**

- 1.Jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida, kishi o'zligini anglashda publisistikaning o' rni.
- 2.O'zbekiston prezidenti I.Karimov asarlari tahlili.
- 3.«Paxta va o'zbeklar ishi» masalalari yoritilishi publisistik asarlar tahlili.
- 4.Bugungi o'zbek publisistikasida ekologiya va tarixga munosabat masalasi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. I.Karimov. O'zbekiston milliy istiqlol, iktisod, siyosat, mafkura. T, 1998.
- 2.O.Tog'ayev. O'zbek badiiy publisistikasi. «Fan», T., 1973.
- 3.O.Tog'ayev. Publisistika janrlari. T., 1976.
- 4.O.Tog'ayev. Qahramon - ijtimoiy hodisa. T., 1986.
- 5.Narzulla Jo'rayev. Agar ogoh sen... T., 1998.
- 6.Narzulla Jo'rayev. Tarix falsafasi. T., 1999.
- 7.Yoqubjon Xo'jamberdiyev. O'zbeklar ishi. T., 1990.

O'zbek publisistikasi tarixining boshlanishi ba'zi tadqiqotlarda o'zbek tilida matbuot paydo bo'lgan vaqtdan - 1870 yilda «Turkiston viloyatining gazetisi» chiqq boshlaganidan hisoblanadi. Darhaqiqat, qator matbuotning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Inson tafakkurining o'ziga xos ifodalanish usullaridan biri publisistikadir. Publisistikaning bosh xususiyati – fikr - tushunchani mantiqiy muhokamalar tarzidan ifodalashdan iboratdir. Bundan ko'riniyaptiki publisistika hayot, jamiyat, tuzumda ro'y bergan, borayotgan, shuningdek, o'z davlati va jahon siyosati, mafkurasi mohiyatini anglash, anglatishda juda samarali xizmat qilgan hamda qilib kelmoqda. Istiqloldan keyin publisistika oldida juda katta masala ko'ndalang bo'ldi. Bu ham bo'lsa mustaqillik mohiyatini anglatish va

murakkab bozor iqtisodi yo'liga o'tish davridagi murakkabliklarni aql-zakovat bilan hal qilishdir. Ma'lumki, xatoliklarni, kamchiliklarni esa o'tmish tajribalarini ijodiy o'zlashtirmasdan bartaraf qilib bo'lmaydi. O'z-o'zidan aniqki, bunga erishishda badiiy publisistikaning roli kattadir.

Bugungi publisistikada quyidagi masalalar yoritilmoqda:

1. Bozor iqtisodiga o'tish masalasi.

2. «Paxta va o'zbeklar ishi» masalasi.

Z. Sud va prokuraturadagi adolatsizlik masalasi.

4. Farg'ona va Piskent fojiasi.

5. Ekologiya masalasi.

b. Sobiq socialistik tuzum illatlarini fosh qilish masalasi.

7. Madaniyat va ma'naviyat kamoloti masalasi.

8. Medisina sohasidagi inson qismatiga loqaydlik va bilimsizlik masalasi.

9. Dinij oqimlarga munosabat masalasi.

Birinchi masala mohiyatini anglatishda, o'z-o'zidan aniqki, prezidentimiz asarlari katga rol o'ynaydi. Davlatimiz rahbari Islom Karimovning qator, xususan, «O'zbekiston XXI asrga intilmokda» kitobida bu masalalar chuqur ilmiy asosda atroflicha yoritilgan.

Bizning bosh strategik maqsadimiz - bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Yurtimizda yashaydigan barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat'iy nazar munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarni ta'minlash davlatimiz siyosatini ifodalaydi.

Prezidentimizning 1992 yilda nashr etilgan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asari milliy istiqlol mafkurasi uchun milliy asos, ma'naviy hayot uchun yo'l-yo'riq bo'ldi. Asarning «Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari» deb atalgan bobida ilgari surilgan umuminsoniy qariyatlarga sodiklik; xalqimizning ma'naviy merosini saqlash va rivojlantirish; inson o'z imkoniyatlarini erkin namoyish qilishi; vatanparvarlik tamoyillari istiqlol mafkurasi uchun asos bo'luvchi qoidalardir.

Prezident Islom Karimov «Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qugqarib qoladigan yagona kuch – ma'rifatdir degan edi. Ana shu konsensiya prezident siyosatining va bosh islohatchilik vazifasini bajarayotgan davlatimiz strategiyasining asosini belgilaydi.

Yoqubjon Xujamberdiyev «O'zbek ishi» kitobida publisistikaning ikkinchi masalasiga keng to'xtagan. U «o'zbeklar ishi» maqolasida shunday yozadi: «Keyingi yillarda «O'zbekistondagi poraxurlikni», O'zbekistondagi qushib yozish» kabi jumlamarmi takrorlash odat tusiga kirib qoldi. Bu hakda matbuotda o'qish, katta minbarlarda, mehmonxonalarda, Moskva, leningrad va boshqa shaharlardagi bozorlar, kucha-kuylarda eshitish mumkin.

...Bularni yozishdan maqsad respublikamizda haqiqatan ham sodir bo'lgan qo'shib yozishlarni, poraxo'rlikni, ko'zbo'yamachiliklarni oqlash emas. Maqsad janoyatchilarning keng mehnatkashlar ommasiga, paxtaning - haqiqiy o'zbek ishining og'ir mehnatini yelkasida tutib turgan dehqonga hyech aloqasi yo'qligini

aytish, xolos» deb kuyinadi.

«Rahimaning oq paxtasi» maqolasida o'quvchilarning paxtaga jalb qilinishi tufayli ta'lim-tarbiya ishi nihoyatda susayib ketganligini misollarda ochib beradi. «Yurakdagi tugun» maqolasida qishloq dehqonlarining og'ir sharoiti xususida, undagi murakkabliklar haqida yozadi.

Kitobning «Haqiqatning o'tkir ko'zlari» bo'limida berilgan «Sirli hovuz», «Javobsiz qolgan savollar», «Farg'onadagi fojia» maqolalarida loqaydlik, adolatsizlik masalasi ko'tarilgan. Ilhomjonning aytganlarini o'qigan odamning badani titrab ketadi va Rossiya askarlarining tutgan ishidan juda katta haqiqat ochiladi, shuningdek, Farg'ona fojiasini yuzaga keltirganlar kimligi, undan maqsad nima ekanligi inkishof bo'ladi.

Karim Bahriyev «Baliq, va qarmoq» maqolasida shunday yozadi: «Xalk, qanchalik boqimanda bo'lsa, kam o'ylasa, totalitarizm shuncha kuchlidir. Demokratik tuzum esa uning aksidir, u xalqning faolligiga tayanadi, mulkni elga beradi, mulk olgan odamlar tajriba ortira boshlaydilar, fikrlashga tushadilar. Tuxum olsang bir yeysan, tovuq olsang ming yeysan» deb falsafiy fikrlaydi. Shu muallifning «Vatan orzusi» nomli maqolasida inson va jamiyat kamolotining asosi tafakkurda degan muhim va to'g'ri fikrni ilgari suradi. U yozadi: «Kamolotning uch yuli bor: tajriba (achchiq yul), taqlid (oson yo'l), tafakkur (og'ir yo'l) bilan inson o'zligini topadi. Taqlidu tajribani ko'rdik. endi tafakkur davridir. At-Termiziy «O'z mulkini himoya qilayotib halok bo'lgan kishi dini islom jangining shahidiga barobardur». «Otang - bozor, onang -bozor». «Boz» degani «o'yin» deganidir. Molu mulkingni tikasan, goh foyda qilasan, goh zarar- yutasan, yutqazasan...

Abdunabi Haydarovning «Qotilning armoni», Akbar Jonuzoqovning «Qulbola qotil», Bekkul Egamqulovning «Qotil ayol» maqolalarida faqat sud va va adliya masalalari bilan cheklanib qolmasdan, jinoyatning kelib chiqish sabablarini ochish borasida ijtimoiy muammolarga diqqatni tortishi bilan muhimdir.

#### **Tekshirish savollari:**

1.O'zbek publisistikasi qachon yuzaga kelgan?

2.Bugungi kun publisistikada qanday masalalar yoritilmoqda?

Z.Bozor iqtisodi mohiyatini anglashda kimning asarlari dasturamal rolini o'tamokda va qanday asarlar?

4.Hayotdagi adolatsizliklarni fosh qilgan, Farg'ona fojiasining kelib chiqishining asl sabablari va undan qanday maqsad ko'zlanganligi ochib berilgan qanday publisistik maqolalarni bilasiz, ular kimlarning qalamiga mansub?

5.Inson va jamiyatning iqtisodiy hamda ma'naviy kamolotida. bugungi publisistikaning o'rnini qanday?

#### **Tayanch tushunchalar:**

1.Publisistika ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlar: publisistik maqolalar, ocherk, pamflet, murojaatnoma, felyeton va hokazolar.

2.Pamflet - biror ijtimoiy tuzum voqyeli yoki siyosiy partiya faoliyati,

programmasi, kamchiligi ustidan o'tkir hajv orkali kuluvchi kichik satirik adabiy asar.

## **9-MAVZU: BUGUNGI ADABIY TANQIDCHILIK**

### **REJA:**

1. Bugungi kun adabiy tanqidchiligida sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar.
2. O'zbek adabiy tanqidchiligida mahorat masalasi.
3. She'riyatning nazariy va shoir mahorati masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar.
4. O'zbek dramaturgiyasi tarixi va bugungi xususidagi tadqiqotlar.

### **ADABIYOTLAR:**

1. T. Boboyev. She'r ilmi ta'limi. T., 1996 y.
2. N. Karimov. Cho'lnon. T., 1992 y.
3. U. Normatov. Abdulla Qodiriy bog'i. T., 1995 y.
4. A. Rasulov. Tanqidchilik ufoqlari. T., 1985 y.
5. A. Rasulov. Ilmi g'aribani qo'msab. T., 1998 y.
6. O. Sharafiddinov. Cho'lnon. T., 1991 y.
7. Cho'lnon. Adabiyot nadur? T., 1994 y.
8. D. Quronov. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. T., 1997 y.
9. M. Qo'shjonov. O'zbekning o'zligi. T., 1994 y.
10. A. Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. T., 1998 y.
11. A. Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. T., 1999 y.
12. A. Hojiahmedov. She'riy ananalarni bilasizmi?. T., 1999 y.

Istiklol va u bergan imkoniyat har bir jabhada o'zgacha yondashishni taqazo qildi. Bu tabiiy hol, Chunki mustaqillik tufayli tuzum o'zgardi. Tuzumning o'zgarishi tafakkurning o'zgarishi bilan bog'liqdir. Yangicha tafakkur tufayli adabiyotshunoslik va adabiy tanqid tubdan o'zgardi. Xo'sh, bu nimada ko'rinadi? Birinchidan, asarni baholash, unga yondashish mezonini o'zgardi. Ya'ni socialistik realizmning dogmatik prinsiplari - hayotni revolyusion taraqqiyotda ko'rsatish, sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik ideal, davr olib borgan, mafkura, siyosat o'rniga tarixiy haqiqat, o'zbekona milliy xususiyat, insonga sinfiy nuqtai nazardan emas, inson nuqtai nazardan yondashila boshlandi. Demak, metodologiya o'zgardi. Ikkinchidan, o'z davrida chin haqiqatni to'la ravishda aks ettirgani uchun qoralangan asarlar va ularning mualliflari o'zining to'g'ri bahosini olib, mazkur asarlar istiqlolni mustahkamlash va uning mohiyatini anglatishdagi roli inkishof qilina boshlandi. Uchinchidan, asarlar totalitar tuzum paytidagidek mavzusi, qahramoni, KPSS syezdlarida ilgari surilgan g'oyalar aks etgan, etmaganligi nuqtai nazardan emas estetik nuqtai nazardan, ya'ni asar zamiridagi go'zallikni kashf etish, inson tuyg'ulari va ruhiyatini ochib berish jihatidai tahlil qilish. To'rtinchidan, sosializm davrida yaratilgan asarlarni

yangicha tafakkur nuqtai nazardan tahlil qilish.

Keyingi davr adabiy tanqidchiligi tilga olingan yangiliklardan tashqari, u faqat adabiyotshunoslik bilan cheklanmay, tarixshunoslik, jamiyatshunoslik, siyosatshunoslik unsurlarini o'ziga singdirdi. Xususan, Fitrat, Cho'lnon, Usmon Nosirlar ijodi xususida yaratilgan tadqiqotlarda shu hol ko'rinadi. Umuman, keyingi yillar tadqiqotlarida shunday yondashish yetakchilik qilyapti.

Fitrat ijodini to'liq tadqiq etishga 80-yillarning yarmi, aniqrog'i, 1987 yildan kirishildi. Bu davr fitratshunoslikda yangi bosqich hisoblanadi. I.Sulton, O.Sharafiddinov, E. Karimov, B.Qosimov, B.Nazarov, N. Karimov, U.Normatov, A.Aliyev, N.Vladimirovna, Sh.Turdiyev, S.Mirvaliyev, B.Do'stqorayev, H.Boltaboyev, I.G'aniyev va boshqalarning tadqiqotlarini 6u borada yozilgan salmoqli ishlar sifatida ko'rsatish mumkin. Bu yangi davrda tadqiqotlar asosan uch yo'nalishda olib borildi:

- a) Fitratning tarjimai holini tiklash;
  - b) asarlarini nashr ettirish va dastlabki -tadqiqotlarni amalga oshirish;
  - v) uning ijodini muayyan masalalar yuzasidan o'rganish.
- Cho'lnon, Usmon Nosirlar ijodiga yondashish ham shu tariqadir.

### **Tekshirish savollari:**

1. Istiqlol adabiy tanqidchilikka qanday imkoniyatlar berdi va yaratdi?
2. Bugungi kun adabiy tanqidchiligidagi yangiliklar nimalardan iborat?
3. Bugungi kun adabiy tanqidchiligi badiiy asarlarga qanday yondashishni taqazo qiladi.